Davlat o'zining Iqtisodiy siyosatini amalga oshrish chogida pulning tarkibiy takchilligini bartaraf qilishga intilmogi kerak. Bu degani pulga talab va taklif muvozanati urnatilish kerakki muamalaga kam xam keragidan ortikcha xam pul massasi chiqarilishiga yul qo'ymasligi kerak. Bunga 1 dan kushimcha pul emissisi usullari bilan emas balki moddiy soxalarni aynisa soat va kushimcha ?ishlo? xujaligini rivojlantrish siyosatini aniq dasturini ishlab chikish kerak. 2 dan yo'qori unumli mexnatni ragbatlantirishni kuchaytirish kerak (solikni kamaytirish, zarur xollarda subsidiyalarni ajratish, turli imtiezlar berish, chet – elga chikishni ta'minlash va boshqalar). 3 dan ishlab tanilgan daromadlarni tasarruf etishda real erkinlik berish; 4 dan norentabel korxonalarni sinatsiyalash va tugatsh tadbirlarini kuchaytirish yuli bilan erishmok kerak. 5 dan ishlab chiqarish soxasi va sarmoya muomalasi soxasining rakobatlashib ishlashini tashkil etish kerak, sarmoya egasi gegemon bo'lib kolmasligi kerak. 6 dan xilma-xil solik imtiezlarini tugatish siyosati yurgizmasligi kerak. Ana shu tadbirlar amalga ohsa Iqtisodiyotning pulga bo'lgan talabi barkarorlashadi, millat va uning ayrim fukorolari real daromadi oshadi, umuman jamiyatda axoli tuk farovon yashash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xamda davlatning jaxon mamlakatlari urtasidagi obrusi ortib boradi.

Nazorat uchun savollar.

1. Pulga ta'rif bering.
2. Qiymatning oddiy yoki tasoddifiy shakli deganda nimani tushunasiz?
3. Qiymatning umumiy yoki kengaytirilgan shaklini izoxlang.
4. Pulning vazifalarini ayting.
5. Pulning Iqtisodiyotda tutgan urni nimalardan o'z ifodasini topadi?
6. Ekvivalent nima?
7. Dastlabki tangalar Urta Osieda kachon va kaerda zarb etilgan?
8. Muomilada pulning qanday turlari mavju?
9. Pulning muomala vosita vazifasini izoxlang?
10. Pulning qiymat ulchovi vazifasi deganda nimanm tushunasiz?

3 - ma'ruza: Pulning aylanishi va uning tarkibi.

REJA:

1. Tovar aylanishi pul aylanishining asosi.
2. Pul massasi aylanish tezligi.
3. Pul muomalasi konuni.

Tayanch iboralar. Tovarxujaligi, pul muomalasi, pul aylanishi, pul massasi, narx, naqd pul, naqd pulsiz, ijtimoiy maxsulot, daromad, bank, kvari pul, pul agregati.

Utgan ma'ruzalardan ma'lum buldiki pul tovar xujaligi maxsuli ekan tovar xujaligining rivojlanishi bilan pul muomalasida xam ktta o'zgarishlar xam sodir bo'ladi. Pul muomalasini ustirish, pullarni ayriboshlash, bo'sh to'rgan pullarni kredit orkali xarakatga keltirish, pulning aylanishining tezlashtirish, pulning aylanish ustidan nazorat qilish kabi iksodiy alokalar yuzaga keladi. Demak, pul doimo xarakatda bo'ladi, u kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga xizmat kiladi. Jamiyatdagi pulning aylanish moddiy aylanishni ya'ni yaratilgan maxsulotlar va xizmatlar xarakatini bildiradi. Pulning aylanishi bilan moddiy aylanish urtasidagi nisbatni quyidagicha kurinishda ifodalash mumkin.

PM*POκN*MX

Bu erda:

PM- pul massasi.

PO -pul aylanish tezligi.

N- narx darajasi.

MX κ yaratilgan maxsulot va bajarilgan xizmatlar miqdori.

Tovarlarni soti va sotib olish, xizmat xaklarini tulash, turli majburiyatlarni bajarish jarayonida vujudga keladigan o'zaro pul va naqd pulsiz xisob kitoblar yigindisi pul xarakatini tashkil kiladi. Buni quyidagi formula orkali ifodalash mumkin:

$$PO=NPXK+NPXK$$

Bu erda:

PO- pul aylanish.

NPXK- naqd pul kulanilagan xisob kitoblar.

NPXK -naqd pulsiz xisob kitoblar.

Shuni xam aytish kerakki ayrim xollarda tovar muomalasida tashkari xam pul munosabatlari va xisob kitoblar sodir bo'ladi. Ular quyidagi xollarda sodir bo'ladi:

ijtimoiy maxsulotni yaratish taksimlash va kayta taksimlash jarayonlarida;

korxona va tashkilotlar pul daromatlarini taksimlash va kayta taksimlash jarayonlarida;

bank muassasalari, axoli va xo'jaliklar urasidagi kredit munosabatlarda;

?ishlo? xo'jalik tarmo?larini moliyalashtirish va davlat sugurta muassasalari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda;

axolining bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro to'lovlarida;

Pul bilan bog'liq munosabatlarining ichida eng asosiy tovar moddiy boyliklarni ayriboshlash xisoblanadi, sababi u boshqa pul munosabatlarini vujudga kelishiga zamin yaratadi. Masalan: ish xakini tulash, bank kreditlarini kaytarish, davlatiga byudjetiga ajratmalar ajratish kabi unlab pul munosabatlari tovar ayriboshlashdan sung amalga oshadi.

Pul aylanish o'zining xarakat doirasida bir necha kurinishlarda bo'ladi. Pul aylanish pulsiz munosabatlarning turiga qarab ikkiga bulinadi:

Tovar moddiy boyliklarining ayriboshlash jarayonidagi pul aylanish;

Tovar xarakteriga ega bo'lmagan pulli xisob kitoblarini amalga oshirish jarayonida sodir bo'ladigan pul aylanish;

To'lov usullariga qarab xam pul xarakati 2 ga bulinadi.

Naqd pulli pul aylanish;

Naqd pulsiz pul aylanish;

Ishtirokchilarning joylashuviga qarab pul aylanish:

Shaxar (tuman) ichidagi pul aylanish;
Shaxarlararo pul aylanishlarga bulinadi.

Pul aylanishning turlari doimiy ravishda o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'ladi. Pul aylanish aktiv va passiv bulish mumkin. To'lov jarayonlarida bevosita ishtirok etgan xarakatdagi pul massasi aktiv pul aylanish deb yuritiladi. Ma'lum pul massasi juda qisqa vakt davomida, vaktincha muomalada ishtirok etadi. Korxona va muassasalarning axolining jamgarmalarining xarkti bo'yicha bunga misol bo'ladi va ular passiv pul aylanish deb ataladi.

Pul agrigati deb jamgarilaetgan va xarid kobilyatini xamma vakt saklovchi barcha pul vositalariga aytiladi. Bunga naqd pullar, ma'lum muddatga yoki muddatsiz bankka qo'yilgan pullar veksel setifikatlar aktsiya qog'ozlari va bular kiradi. Pul ogregatlarining soni mamlakatda Iqtisodiyotning axvoliga qarab turli bo'ladi. Mamalakatimizda yaqin vaqtlargacha pul ogregtlari xisob bilan emas va moliya-kredit muassasalarining amaliy faoliyatida ulardan foydalanilmas edi. A'lokachilar xam pul ogregatlari bilan tanish emas edi. Sababi pul nazariyasiga ko'ra naqd va kvazipullarni birlashtirib bo'lmaydi degan tushuncha bor edi, vaxolanki: pul bozori investitsiya bozori va kimmatbaxo qog'ozlar bozorini bir – biridan ajratib bo'lmaydi, ular bir-birlari chambar-chas bog'liq sababli pul agregati degan tushuncha analiziga kengrok singib bormokda. Bozor Iqtisodiyotining eng muxim unumdorlaridan (element) biri pul agregatlarini boshqarishidir. Rivojlangan mamlakatlarda pul agregatlarini boshqarish asosan Markaziy banklar zimmasiga yo'qlatilgan, shu jumladan bizning mamlakatda xam pul agregatlarini boshqarishda Markaziy bank tomonidan quyidagi pul kredit siyosatidan foydalaniladi:

1.Diskant (foiz) siyosati. Diskant deganda veksellarni xisobga olish narx chegirmalari, chegirma foizlari tushuniladi. Diskant siyosatini amalga oshirish natijasida markaziy bank xisob-kitob foizlarini pulga bo'lgan talab va taklifiga qarab oshirish va tushirish siyosatini olib boradi.

2.Ochik bozordagi operatsiyalar siyosati. Markaziy bank tijorat banklaridan kimmatbaxo qog'ozlarini sotib olish yoki ularga davlatning kimmatbaxo qog'ozlarni sotish orkali pul talabi va taklifiga xamda pul massasiga ta'sir etadi. Respublikamizda pul massasining quyidagi tarkibi kabul kilingan.

MO-muamaladagi naqd pul miqdori .

$M1qMO + tegishli$ xisob – kitob varakalaridagi pul koldiklari $Q_{maxalliy}$ byudjetlar mablaglari + byudjet , jamoa va boshqa tashkilotlarining mablaglari.

$M2 \kappa M1 + jamgarma$ banklar(xalk banklari) muddatli omonatlar .

$M3 \kappa M2 + Q$ chiqarilaetgan sertifikatlardan aniq maqsadli zaem abligatsiyalari Q_{davlat} zaem abligatsiyalari Q_{xazina} majburiyatlari. Pul massasi tarkibiy qismlariga kvazi pullar (lotincha uxshash) ni xam kiritish mumkin. Kvazi – pullar to'g'ri ma'noda pul bo'lmasada , likvid ativlar yani qiymatini yo'qotma osongina pulga aylantirsa bo'ladigan aktavlar xisoblanadi. Kimmmatbaxo metallar, kimmatbaxo toshlar san'at asarlaripul bilan bir xil darajada turadi. Binolar, uskunalar mashinalar va boshqalar likviditligi kamrok odatda boyliklarning bu toifasi «muzlatilgan» deb ataluvchi aktivlarga kiradi.

Pulning miqdori Iqtisodiyotning muomala mablaglari va to'lov mablaglariga bo'lgan xakikiy extiyojlariga muvofiq bo'lgan takdirda pul umumiy ekvivalent rolini normal bajara oladi. Bozor iktisdiyoti sharoitida muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday aniqlanadi. Muomala uchun zarur bo'lgan pulning miqdori muomalada bo'lgan tovarlar umumiy baxosining pul aylanishi tezligiga bulingan summasi bilan

belgilanadi. Pul muomlasini tartibga tartibga solib turish davlatning asosiy iktisodiy vazifalardan bir xisoblanadi. Malumki muomalada bo'lgan tovarlar massasining summasi kanchalik katta bo'lsa muomala uchun shunchalik kup pul massasi kerak bo'ladi. Ayni vakitda pul kan-chalik tez aylansa, muomala uchun shunchalik kam miqdorda pul talab kili-nadi va aksincha muamala uchun zarur bo'lgan kup miktordagi. Uch omilga bog'liq: Bular

Tovar miqdori (TM)

Tovar baxosi (TB)

Pul aylanishining tezligi (PAT)

Bu bog'liqni formulaga solsak, uning kurinishi qo'ydagicha bo'ladi:

$$\Pi M = \frac{TM * TB}{PAT};$$

Rivojlangan mamlakatlarda muamala uchun zarur bo'lgan pul miqdorining (PM) tulik formulasi qo'ydagicha bo'ladi:

$$\Pi M = \frac{TM * TB - Kp + Tl}{PAT_{\text{екиПО}}};$$

Bu erda Kr – kreditga sotilgan tovarlar baxosining summasi; Tl – muddati kelgan to'lovlar summasi. Biz yo'qorida pul kanchalik tez aylansa muomala uchun shunchalik kam miqdorda pul talab kilinadi va aksincha ddeb aytgan edik. Bu pul muammosi konuni deb aytiladi. Muomala uchun yana bir formula borki, u muayyan davrda muomalaga zarur bo'lgan pul miqdorini tularok aniqlashga erdam beradi.

$$3\Pi M = \frac{\Pi\P - Kp + M\P T - 3\P - \text{ЮТ} + \Pi P}{\Pi O}$$

Bu erda:

ZPM – muayyan davrda muomalaga zarur bo'lgan pul miqdori;

NP – naqd pulga sotiladigan tovarlar baxosining umumiy summasi;

Kr - kreditga sotiladigan tovarlar baxosining summasi;

MPT – naqd pul bilan tulanadigan, muddati kelgan majburiy pul to'lovlari summasi;

ZT - zaemlar uchun to'lovlari summasi;

YuT – turli yutuklar uchun to'lovlari summasi;

PR – xo'jaliklar va axoli kulidagi naqd pul zaxiralari summasi;

PO – muayyan davrdagi pul birligining aylanish soni;

Keragidan ortikcha pul chiqarish baxolarining kutarilishiga olib kelai, kam ul chiqarish tarlaning stilmay qilishiga sabab bo'ladi.

Demak, tovarla umumiy baxosining summasi bilan muomaladagi pulning mikddori urtasida muvofiqlik bulishiga erishishi – mamlakat Iqtisodiyotni barkaroor rivojlantirishning muxim shartlaridan biridir.

Banklardan ish xaki va boshqa turli xil maqsadlarga berilgan naqd pullar muomalada bo'lib yana savdo tushumi boshqa yunalishlar orkali ma'lum davri ichida bankka kaytib keladi. Uni pul muomalada bulish davri deb ataladi. Pulning aylanishi tezligi esa uning necha marta oldi-sotdidagi vositachilik kilganligi bildiradi. Ma'lum davr (chorak, yarim yil, yil) kunlarining pul muomalada ishtirok etgan kunlariga bo'lgan nisbati shu davrdagi pulning aylanish tezligini ifodalaydi. Masalan pulning aylanish davri 15 kunni tashkil etsa, u chorakdagi aylanishi tezligi (90/15κ6) 6 martani tashkil etadi. Shu davr mobaynida muomalaga 60 mln. sumlik tovar maxsulotlari chiqarilgan bo'lsa (60/6κ10) 10 mln. sumlik muomalaga tovar maxsulotlaridan yarimi naqd pulsiz xisob-kotiblar

orkali sotilsa unda muomalaga xammasi bo'lib 5 mln. sumlik naqd pul chiqariladi. Demak bundan shunday xulosa kelib chikadiki pul kanchalik tez aylanib tursa pulga talab shunchalik kamayadi.

Nazorat uchunsavollar.

1. Pul aylanishi deganda nimani tushunasiz?
2. Pul aylanishi o'zining xarakat doirasida necha kurinishda bo'ladi?
3. Pul agregati nima?
4. Pul agregati qanday boshqariladi?
5. Muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori qanday aniqlanadi?
6. Tovar muomalasidan tashkari pul munosabatlari va xisob kitoblar kaysi xollarda sodir bo'ladi?
7. Pul aylanish o'zining xarakat doirasida necha kurinishda bo'ladi?
8. Pul aylanishi to'lov usuliga qarab qanday turlarga bulinadi?
9. Pul aylanish ishtirokchilarning joylashuviga ko'ra qanday pullarga ajratiladi?
10. Muomalaga keragidan ortikcha pul chiqarish qanday salbiy okibatlariga olib keladi?

4 - ma'ruza: Naqd pulli va naqd pulsiz xisob kitoblar.

Reja:

1. Naqd pulsiz oborotni tarkibi.
2. Naqd pulsiz xisob kitoblarni shakllari.
3. Naqd pulli oborotni xususiyatlari.

Tayanch ibora. Naqd pulsiz oborot, ssuda, byudjet, investitsiya, chek, aktsept, to'lovtalabnomasi akreditiv, to'lov topshiriknomasi, inkassa, limit.

Naqd pulsiz xisob-kitoblar deganda korxona va tashkalotlar tomonidan tovar ayriboshlash xizmatlar kursatish va tovarsiz operatsiyalar bo'yicha bir-biriga bo'lgan talab va majburiyatlarni naqd pul ishlatmasdan pul mablaglarini xisob-kitob rakamiga o'tkazish orkali amalga oshirilishi tushuniladi. Soddarok atganda naqd pulsiz xisob-kitoblar bu naqd pul ishtirokisiz sotuvchi va sotib oluvchining xisob-kitob rakamlarida ezuv orkali amalga oshiriladigan xisob-kitobidir. Uni joriy etishdan asosiy maqsad naqd pul taksimligiga barxam berishdir. Iqtisodiyot rivojlanib borgan sari pul aylanishda va muomalada pulsiz xisob-kitoblarning xissasi doimo ortib boradi. Naqd pulsiz xisob-kitoblarning joriy etish zaruriyatini keltirib chiqariuvchi bir kator sabablar bor, bular.

Jami mil. Shaxs va milliy daromat xajmining ortib borishi;

Saonat va ?ishlo? xujaligi ishlab chiqarish xajmining usishi;

Tovar obarot xajmining usishi;

Bayoni kreditining ayriboshlash jarayonidagi rolini usishi;

Iqtisodiy alokalarini rivojlantirishda va xisob kitoblarda elektron xisoblash texnikasi va kompyuterlardan foydalanishning usib borganligi va xakozolar.

Xozirgi kunda pul aylanishining asosiy qismida odamzoddan ortigi naqd pul ishtiroksiz schetlardan schetlarga o'tkazish orkali amalga oshiriladi.

Naqd pulsiz pul xarakati xajmining doimiy usib borishi xalk xujaligid a juda katta axamiyatga ega. Uning axamiyati shundaki:

Xalk xujaligida naqd pulga bo'lgan extiyoj keskin kamayadi.

Uzaro xisob kitoblarni amalga oshirish uchun sarf- lanadigan muamala xarakatlarida tejaladi.

Pul mablaglarining xavfsizligi ta'minlanadi.

Xo'jaliklar urtasidagi alokalarni mustaxkamlaydi, tovar va pul mablaglarini xarakatlarini tezlashtiradi.

Solik tizimi faoliyatini yaxshilashga erdam beradi.

Firma (korxona), tashkilot va muassasalar urtasida amalga oshiriladigan naqd pulsiz xisob kitoblar ularning maqsadi, ob'ekti (makoni) to'lov usuliga qarab bir necha turlarga bulinadi.

Xisob kitob ob'ekti yoki to'lovning qanday maqsadga karatilganligiga qarab:

A) tovar va xizmatlar uchun xisob kitoblar.

B) tovarsiz operattsilar.

Xisob kitoblarni o'tkazish joyiga qarab:

A) bir xududa amalga oshiriladigan xisob kitoblar.

B) xududlararo xisob kitoblar.

V) mamlakatlararo xisob kitoblar.

To'lovni amalga oshirish usullariga qarab:

A) kafolatlangan yoki kafolatlanmagan xisob kitoblar.

B) o'zaro qarzlardan kechikishi orkali bo'ladigan xisob kitoblar.

V) to'lov kechiktiriladigan xisob kitoblar.

Maxsulotni sotish usuliga qarab:

A) sotuvchi bilan sotib oluvchi urtasidagi to'g'ridan-to'g'ri xisob kitoblar.

B) tranzit operattsiyalari orkali amalga oshiriladigan xisob kitoblar.

Ma'lumki naqd pulsiz xisob kitoblarni tashkil etish va amalga oshirish ishlarini bank olib boradi. U larning vazifalari bu borada xar xildir. Maxsus banklar xalk xujaligi tarmoqlari korxonalarga xisob kitob xizmatini kursatadi. Markaziy bank bu xisob kitoblarni yuritish bo'yicha tartib koidalarni ishlab chikadi va ularning bajarilishi ustidan nazorat yurgizadi.

Korxona va tashkilotlarning arizalariga binoan maxsus banklar ularga naqd pulsiz xisob kitoblar operattsiyalarini amalga oshirish uchun:

Xisob kitob rakami.

Joriy rakami.

Ssud rakami.

Byujet rakami va boshqa rakam ochadi .

Bu rakamlardan kaysi birining ochilishi:

Xo'jalik va tashkilotlarning faoliyati turiga.

Moliyalashtirish manbayiga.

Foydalanish maqsadiga investitsiya sarflangan va boshqalarga qarab belgilanadi.

Xisob – kitob rakamlari xuquqkiy jixatdan mustakil balansga va o'z aylanma mablaglariga ega bo'lgan xo'jalik xisobi asosida ish yuritadigan korxona va tashkilotlarga ochiladi. Xuquqiy jixatidan mustakil bo'lmagan tashkilotlar va muassasalarga joriy rakamlar ochiladi.

Byudjet kassasini ijro etish operatsiya larini bajarish, to'lovlarning tushumi va xarajatlarini aks etirish uchun byudjet rakamlari ochiladi. Korxona va tashkilotlar bank muassasalarida o'z rakamlarini ochish uchun quyidagi xujjatlarni topshirishlari kerak:

Rakam ochish to'g'risidagi ariza.

Korxona yoki tashkilot tashkil kilinganligi to'g'risida yo'qori tashkilotlarning qaroridan kuchirma.

Korxona yoki tashkilot nizomining nusxasi.

Imzolar namunasi va ramzli muxri tushirilgan ikkita maxsus katochka.

Bu xujjatlar bankga topshirilgandan sung uni to'g'riligini bank boshqaruvchisi ko'rib chiqadi va bosh buxgalterga rakam ochish mumkinligi to'g'risida kursatma beradi. Amaliyotda naqd pulsiz xisob -kitoblarning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

Aktsent shakli.

To'lov topshiriknomalari bilan xisob-kitoblar.

Akredit shakli .

Cheklar bilan xisob-kitoblar.

Uzaro to'lov va majburiyatlarni kechishasosidagi xisob-kitoblar.

Rejali to'lovlar va boshqalar.

1. Aktsept – bu tulashga rozilik degan bo'lib to'lovchi korxona tomonidan to'lov talabnomasi tulash uchun kabul kilinganligini bildiradi.

Ma'lum qilish shartiga qarab aktsent ijobiy yoki salbiy bo'ladi. Ijobiy aktseptda to'lovchining roziligi yozma ravishda bildiriladi. Salbiy aktseptda to'lovchining to'lovlarni amalga oirishga roziligi sukut saklash orkali bildiriladi, ya'ni aktsent muddati ichida to'lovchi korxona aktseptdan bosh tortmasa, ezam ravishda rozilik bildirmasa bank tomonidan to'lovlar amalga oshiriladi. Amaliyotda aktsept shakli naqd pulsiz xisob-kitoblarning 45 – 50 % ni tashkil etadi. Bunday xisob-kitoblarga kuprok kamunal va maishiy xizmatlar, telefon, gaz, suv, edlektr, issiklik energiyasi uchun to'lovlar kiradi.

2. To'lov topshiriknomalari bilan xisob-kitoblar shakli asosan maxalliy xududlarda tovarlarni junatishda kullaniladi.

Pulni to'lovchi bank muassasasiga belgilangan muddatdagi summani o'z shchetiga tovar sotuvchi yoki bu korxonaning bankdagi shchetiga o'tkazish to'g'risidagi topshiriknomani takdim etadi. Sotib oluvchi tovarni olgnaidan sung keyingi ish kunigacha kechiktirmasdan to'lov topshirigini bank muassasasiga topshirishi kerak. Xar bir kechikkan kuni uchun 0.04 % tovar summasiga nisbatan miqdorida jarima tulanadi.

3. Chek – bu tovar olish uchun kassaga pul urniga beriladigan xujjatdir. Pulsiz xisob-kitoblarning buday shaklida bank korxona va tashkilotlarga chek daftarchasini ezib beradi. Demak chek korxona va tashkildotlarning bankida pul borligidan dalolat beruvchi ishonch qog'ozi.

Pul xarakati bankdan boshlanadi. Naqd pul bankdan chikkach, korxona firma , tashkiloit va muassasalarning kassasiga va undan axoli kuliga utadi. Oldi sotdi jarayoni va to'lov majburiyatlari bajarilganch yana bankka kaytadi, albatta xammasi emas. Naqd pul kullaniladigan pul aylanish quyidagi sub'ektlar urtasida bo'ladigan pul xisoblarida namoyon bo'ladi:

Davlat va korxona, tashkilolar, muassasalar urtasida (ish xaki, mukofotlar berish, tovarlar sotib olish, xizmatlar kursatish uchun to'lovlar).

Davlat va axoli o'rtasida (pensiya, stipendiya, nafaka, yutukli pullar tulash, byudjetga turli to'lovlar, soliqlar va boshqalar).

Kredit tizimi bilan axoli urtasida (Qarz olish va kaytarish, jamgarma qo'yish va uni olish va boshqalar).

Pul doimo aylanishda xarakatda ekan muomalada naqd pul massasi (miqdori) vujudga keladi. Muomaladagi naqd pul massasi deganda ma'lum bir vaktida muomalada mavjud bo'lgan naqd pullarning yigindisi tushuniladi. U kyidagilardan tashkil topadi:

Ish yurituvchi barcha sub'ektlar xamda jamoa tashkilotlarining kassa koldiklari.

Barcha banklarning kassalaridagi naqd pul koldiklari.

Axoli kulidagi naqd pullar.

Ma'lumki muomaladagi naqd pullar va ularning koldiklari limid bilan chegaralanadi. Limiddan ortikcha pul koldiklari banklarga topshiriladi. Banklar esa bu ortikcha naqd pul mablaglarini rezerf fondiga o'tkazadi. Muomaladagi naqd pul massasining axoli kulida qolgan qismini xisoblash va tartibga solish nixoyatda kiyin jarayondir, sababi axoli uni xoxlagan vaktida ishlatishi mumkin. Bundan tashkari muomalada naqd pul massasiga ta'sir etuvchi omillar mavjud. Axoli kulidagi naqd pul massasiga axolining ist'emol tovarlariga bo'lgan tovarining kondirish darajasi, vaktincha bo'sh to'rgan jamgarmalarning bank aylanmasiga jalb etish darajasi ta'sir kursatadi. Arag muayyan xududda axoli ist'emolini kondirish uchun tovar va xizmatlar etishmasa pul massasi boshqa joyga «Okib» ketadi. Bu «Okib» yurish bozor Iqtisodiyotiga utishi davrida barcha mamlakatlar sharoitida pul kadsizlanishini jilovlash maqsadida mamlakatimizda o'ziga xos pul kredit siyosati o'tkazilmokda, buning ma'nosi naqd pullar fakat ish xaki va unga tenglashtirilgan mablaglarni (nafaka, pensiya, stipendiya) berish uchun ishlatilmokda. Ammo ish xakiga natura formasida maxsulotlar berish xam yo'q emas.

Bozor Iqtisodiyotiga utish sharoitida xo'jaliklarda naqd pul aylanishini tashkil etishni quyidagi tamoillari mavjud:

Barcha ish yurituvchi sub'ektlar (korxona, firma, tashkilot va muassasalar) o'zlarining pul mablaglarini banklardagi xisob kitob rakamlarida saklashlari shart. Agar shunda, pul mablaglarida tezkorlik bilan foydalanishga boshqa ish yurituvchilarning pakd pulga bo'lgan talabining kondirilishiga erishiladi. Bundan tashkari, mamlakatda pul xarakatining tezlashuviga erishiladi va xalk xujaligiga mikiyosida xo'jaliklararo to'lov intizomi mustaxkamlanadi.

Xo'jaliklararo naqd pul aylanishi va naqd pulsiz xisob-kitob shartlari maxsus kon va koidalar bilan kat'iy chegaralangan.

Naqd pul mablaglari banklar tomonidan xo'jaliklarga ma'lum maqsadlar uchun beriladi va ularni amalga oshrish uchun ishlatiladi.

Xo'jaliklarda kassaning kirim va chikim operatssiyalari xarakdagi koidalarga rioya kilingan xolda aniq ravshan va o'z vaktida amalga oshirilishi shartdir.

Nazorat uchun savollar.

1. Naqd pulsiz oborot nima?
1. Naqd pulsiz xisoblashuvlarni qanday turlarini bilasiz.
2. Naqd pulsiz xisoblashuvlarni Iqtisodiyotga qanday ta'siri bor?
3. To'lov talabnomasi bilan xisoblashuvlarni Iqtisodiyotga qanday ta'siri bor.
4. Chek bilan xisoblashuvlar qanday amalga oshiriladi?
5. Naqd pulsiz xisob kitoblarni tashkil etish va amalga oshirish ishlarini kim amalga oshiradi?
6. Xisob-kitob va joriy schetlar kimlar uchun ochiladi?

7. Korxona va tashkilotlar banklarda o'z schetlarini ochish uchun qanday xujjatlarni topshirishlari kerak?
8. Naqd pulsiz xisob-kitoblarni tashkil etishda qanday tamoyillarga amal kilinadi?
9. Naqd pulsiz xisob kitoblarda inkassa suzining ma'nosi nima?

5. Ma'ruza: Pul bozori.

Reja:

1. Pul bozori – moliya bozorining tarkibiy qismi sifatida.
2. Qisqa muddatli xazina majburiyatlari yoki xazina veksellari.
3. Pul bozoriga doir operatsiyalarni tashkil etish.
4. O'ZBEKISTON Respublikasida pul bozorining shakllanishi va uni takomillashtirishning asosiy yunalishlari.

Tayanch ibora. Pul, ekvivalent, pulga talab, pul taklifi, pul bozori, moliya bozori, sarmoya, kimmatli qog'ozlar, veksels, o'tkazma veksels, investor, obligatsiya, aktsiya, dividend.

Bozor Iqtisodiyoti mavjud ekan uni pul bozorsiz tasavvur etib bo'lmay. Ma'lumki pul bor ekan uni qarzga olish yoki qarzga berish tabiiy xol xisoblanadi, bundan tashkari foyda olish maqsadida pulni valyuta sifatida boshqa davlat pul birligiga ayriboshlash keng rivojlangan bo'ladi. Demak, xozirgi bozor Iqtisodiyotida qarzga pul olish odatdagi Iqtisodiy vokeaga aylangan. Masalan: firmalar uskunalar, mashina, xom ashe, yokilgi sotib olish, ish xaki tulash uchun, fermerlar uruglik, ugit va texnika sotib olish uchun, davlat o'z sarfini koplash uchun, jismoniy shaxslar kushimcha daromat olish uchun qarz oladilar exud pul sotib oladilar. Bundan xulosa shuki pulga talab bor.

Aynik vaktida boshqa yuridik va jismoniy shaxslarda ortikcha pul zaxirasi mavjud bo'ladi, bundan xulosa puo taklifi bor. Pulga talab va pul taklifi pul bozori mavjudligining asosi xisoblanadi. Agar oddiy xulosa kilinsa, pul bozori bilan kredit munosatlari urtasida uxshashlik borday tuyuladi, aslida unday emas, ular urtasida katta fark bor. Agar pul bozorida barcha sub'ekitlarning o'zlariga tegishli pul mablaglari ishtirok etsa, kredit o'zga mulki bo'lgan pulni qarzga olib, ishlatish borasidagi munosatlarni anglatadi. Pul bozori bilan kreditning umumiyligi shundaki, ularning xar ikkalasida xam pul mablaglari yuzasidan bo'ladigan munosatlar etadi, ularning farki esa pul mablaglarini jamlash va ishlatish usulining xar xil bulishi bilan xarakterlanadi. Pul bozorida pul egasiuz mulki bo'lgan pul resurslarini xoxlagan vaktida, xech bir xarajatsiz ishlatishi mumkin. Mavzuning 1-savoli pul bozori-moliya bozorining tarkibiy qismi sifatida deb atalgan. Buning sababi pul bozorisiz tulik ma'nodagi moliya bozorini tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki mamlakatning moliya bozori pul bozori, kimmatli qog'ozlar bozori va sarmoyalar bozoridan tashkil topadi.

Pul bozori xam, kimmatli qog'ozlar bozori xam, samoyalar bozori xam rasmiy va norasmiy ravishda faoliyat kursatadi. Rasmiy bozorlar konun doirasida amal kilsa, norasmiy bozorlar infilyatsiya jarayonlari davom etib tovar – pul munosabatlari buzilgan davrlarda konundan tashkari faoliyat kursatadi.

Moliya bozori ishtirokchilari mulk egasi sifatida o'z boyligidan o'zlari bilganlaricha foydalanishlari mumkin, shu sababli ular pul yuzasidan erkin munosabat asosida bitimga keladilar. Moliya bozorida pulga kimmatbaxo qog'ozlar – obligatsiya va aktsiyalar sotib olinadi. Moliya bozorida veksellari va sertifikat kabi xujjatlar xam pul singari muomalada bo'ladi, ular xam oldi-sotdi kilinadi. Moliya bozori amaliyotda rasmiy ravishda tijorat banklari, sugurta, investitsiya, moliya kompanentlari, foid birjalar, auksionlar orkali faoliyat kursatadi. Moliya bozoridagi operatsiyalar maxsus vositachilar dimrlar, broker firmalar orkali amalga oshiriladi.

Moliya bozorining eng axamiyatli joyi shundaki, u axoli kulidagi ulik, xarakatsiz pulni jonli, daromat keltiruvchi pulga aylantradi. Bundan shunday xulosa kelib chikadiki, moliya bozori milliy va xalkaro xo'jalik doirasida pul mablaglari erkin xarakatining maxsus shakli xisoblanadi.

Endi bevosita pul bozorining o'ziga kaytalik. Jaxon pul bozori amliyotidan ma'lumki qisqa muddatli xazina majburiyatlari yoki xazina vesellari (ular xazina biletleri xam ataladi) pul bozorining asosiy xarakatlantiruvchi vositalaridan biri xisoblanadi.

Veksellari – nemischa ayirbosh suzidan oligan bo'lib, muayyan miqdordagi qarzga olingan pulni belgilangan muddatda kat'iy tulash majburiyati yo'qlangan, konun bilan tasdiklanganxolatda tuldirib rasmiylashtirilgan qarzdorlik xujjatidir. Ularni xar qanday tulashga laekatli korxona chiqarish xuquqiga ega. Veselni sotish, kredit sifatida berish va aniq oldi-sotdi bitimida to'lov vositasi sifatida ishlatish mumkin. Veksellar asosan qisqa muddatga (bir yilgacha) beriladi, uning oddiy va o'tkazma turlari mavjud. Xazina veksellari investorlarni juda kiziktiradi, chunki ular ishonchli, likvidli va daromadlari kafolatlangan. Odatda yangi chikrilgan veksellar dastlab kim oshdi savdosida (auksionda) sotiladi, buerda sotuvchi sifatida moliya muassasining o'zi, xaridorlar sifatida esa maxsus dillerlar, banklar ishlab chiqarish tuzilmalari ishtirok etadi. Xazina veksellari bo'yicha tulanadigan foizlar diskont (xisobga olish) shaklida tulanadi. Masalan: agar xazina biletining nominal qiymati 100 sum bo'lsa, ochik savdoda u 96 sumlik diskont narxida sotiladi. Anshu ark uning daromatligini belgilaydi. Vekellari bo'yicha daromat quyidagi formula bo'yicha xisoblanadi:

$$[(100 - \text{narx}) : \text{narx}] * [360 : 100 : \text{kaytarish muddati}].$$

Bizning misolimizda, agar katarish muddatigacha qolgan 94 kun bo'lsa, daromat quyidagini tashkil kiladi:

$$[(100 - 96) : 96] * [360 : 100 : 94] \approx 16,0 \%$$

Xazina veksellari eng qisqa muddatli davlat qog'ozi bo'lganligi uchun, odatda ular bo'yicha foizlar o'zo? muddatli va urta muddatli qog'ozlarnikiga nisbatan past bo'ladi. Xazina veksellari – davlat uchun eng malol keladigan qarz majburiyatlari xisoblanadi. Bunga sabab shuki, qisqa muddat mobaynida ularning egalari kuplab miqdordagi veksellarni kaytarishlari mumkin. Kupincha, qarz majburiyatlarining ushbu xili bo'yicha qarzdorlik davlat qarzining asosiy qismini tashkil kiladi. Xazina biletlarining takomillashtirilgan turi – jamgarma obligatsiyalaridir. Ular obligatsiya egasi nomiga kayd kilinadi va ularni sotib bo'lmaydi, shuning uchun ularni “Bozordan tashkari” deb atashadi. Ularni fakat ayrim shaxslar va ba'zi investitsiya foizlari cheklangan miqdorda sotib olishi mumkin. Ularning yozilgan qiymatini obligatsiya egasi istagan paytida kaytarib olishi mumkin, bu esa ularni yo'qori likvidli kiladi. Jamgarma obligatsiyalari bir yilda bir marta chiqariladi, uni ish xakidan ushlab kolish yuli bilan yoki naqd pulga xarid qilish mumkin. Xazina veksellari bilan bo'ladigan operatsiyalarni fyuchers bitimlarisiz

tulik tavsuf etish mumkin emas. Fyuchers bitimlari bo'yicha operatsiyaning maqsadi foiz stavkalari o'zgarishidan chaykov qilish va bu stavkalarining o'zgarishi bilan bog'liq tavakkaldan saklanishdir. Soddarok kilib aytilsa fyuchers bitimi tuzilganida kimmatbaxo qog'ozlar narxi o'zgarsa xam (ma'lum muddat utganidan keyin) shartnomada kursatilgan baxo bo'yicha tulanadi.

Bank vekseli – pul bozorining navbatdagi vositasi xisoblanadi. U keng tarkalgan bo'lib, kelgusida ma'lum muddatda tulash sharti bilan tovarga xak tulash uchun firma yozib beradigan chekdan iborat. Bunday vekselda “Aktseptlangan” degan bank belgisi bo'ladi, bu belgi tulash buyrugini ifodalab, chek topshiriladigan bankka o'z-uzidan kafolat vazifasini utaydi. Bunday veksell firma bilan yaxshi tanish bo'lmagan, lekin bankka mutlok darajada ishonadigan xorijiy mijozlarga juda kul keladi. Banklarning veksell operatsiyalari qisqa muddatli tijorat krediti bilan bevosita bog'liq. Xaridor tovar xaqini o'zi to'lay olmasa, veksellarni naqd pulga aylantirish extiyoji tugiladi va bulish veksell operatsiyalari erdamida bajariladi, ya'ni bank muddati kelmagan veksellni sotib oladi yoki ular yuzasidan pul ssudalari beradi. Ssuda berilganida veksellar bank ixtieriga utadi, ssuda kaytarib berilishi bilan veksellar egasiga kaytariladi. Veksellar yuzasidan berilgan ssudalar muddatli (kaytarish muddati kursatilgan) va muddatsiz ya'ni onkol (bank tomonidan istalgan paytda kaytarib olinadigan) xillarga bulinadi. Ular odatda 1 oydan 3 oy muddatgacha beriladi.

Pul bozorining yana bir unsuri – depozit sertifikat (bankning korzdorligi xakidagi xujjat) deb aytiladi. DS – kredit muassasasi bo'lgan bankning omonatchini depozit kredit muassasalariga saklash uchun joylashtirilgan pul mablaglari yoki kimmatli qog'ozlar (bank jamgarmasi) olish xuquqini tasdiklovchi, pul mablaglarini deponentga o'tkazilganligini bildiruvchi ezma guvoxnomasi xisoblanadi. DS ning ikki shakli mavjud: talab kilib olinadigan (sertifikatni kursatib ma'lum summani olish xuquqini beradigan) va muddatli (muddati tulganidan sung tulanadigan) sertifikatlarga bulinadi. DS xam yo'qori likvid xisoblanadi. Agar ularni obruli yirik banklar chiqargan bo'lsa, ular muomala va to'lov vositasi sifatida pulning urnini bosadi. Ammo bu Iqtisodiy yo'qsalgan, rivojlangan mamlakatlarda keng tarkalgan.

Pul bozorini gapirganimizda sarmoyalarbozorining mazmuniga tuxtab utish foydadan xli bo'lmaydi. Sarmoyalar bozori mamlakat uchun muxim bo'lgan vazifa – yirik davlat muammolarini xal qilish uchun sarmoyalarini tuplash va ularni maqsadli yunaltirishga xizmat kiladi.

Sarmoyalar bozorining asosiy moliyaviy vositalari – karpartsiyalar va maxalliy xukumat obligatsiyalari, aktsiyalar, kafolat krediti, urta va o'zo? muddatli xazina majburiyatlari, zaemlar xisoblanadi.

Sarmoyalash – kimmatli qog'ozlar bozoridagi va umuman Iqtisodiyotdagi kulamni ifodalaydigan kursatgich. Sarmoyalar bozorida eng keng tarkalgan kimmatbaxo qog'oz turlaridan biri obligatsiyalardir.

Obligatsiya – uning ega pul mablaglari tulatinganligini bildiradigan va unga kat'iy belgilangan muddatda o'z naminal qiymatini koplash majburiyatini tasdiklaydigan kimmatli qog'oz. Obligatsiyani chiqargan tashkilot (emitent) pul qarz oluvchi va sotib oluvchi (investor) qarz beruvchi ya'ni kreditor sifatida nomayon bo'ladi.

Ular oddiy va yutukli, foizli va foizsiz (maqsadli), erkin muomalada bo'ladigan va muomala doirasi cheklangan bulishi mumkin.

Obligatsiyalarning nominal (uziga ezilgan) narxi, kaytarib olish narxi va bozor narxi bo'ladi.

Sarmoyalar bozorining yana bir unsuri – aktsiyalar xisoblanadi. Aktsiya – aktsionerlik jamiyati chiqaradigan va uning egasiga jamiyat oladigan foydadan dividend tarikasida ma'lum mirdorda daromat olish xuquqini beradigan kimmatbaxo qog'ozdir.

Aktsiyadan farklirok obligatsiyalar fakat qarzдорlikni bildiradi. Aktsiyalar ikki xil bo'ladi: oddiy va imtiezli.

Oddiy aktsiya shunday aktsiyaki, unga tegadigan dividend foydaga qarab xar xil bo'ladi, uning miqdori kat'iy kafolatlanmaydi, ammo u egasiga aktsioner jamiyat yiginida ovoz berib, uning ishini xal etishda ishtirok etish xuquqini beradi. Oddiy aktsiyada dividendni olmay kolish xavf-xatari xam mavjud bo'ladi.

Imtiezli aktsiya shunday aktsiyaki, unga tegadigan daromat kat'iy foiz shaklida oldindan belgilanadi va albatta u beriladi, joriy yilda tegmay qolgan daromatni kelajakda olishni kafolatlamaydi, ammo o'z egasiga aktsionerlar yiginida berish xuquqini ta'minlamaydi.

Moliya bozorida oddiy aktsionerga nibatan imtiezli aktsiyalar xardorgir bo'ladi. Aktsiyalarda kursatilgan qiymat uning nominal qiymati bo'ladi, ammo uning bozor baxosi undan past yoki baland bulishi mumkin. Bozor baxosi bozor kursi deb ataladi. bozor baxosi kimmatbaxo qog'oz katirovkasi deb ataladi.

O'ZBEKISTON Respublikasida xam mustakillik sharofati bilan moliya bozori xususan pul bozori astasekin tarkib topib, rivojlanib bormokda. Davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (DKMO) muomalaga chiqarilishi natijasida sarmoyalar bozorida eng yo'qori likvidli, yuz foiz ishonli moliya vositasi paydo buldi. DKMO investorlar uchun xam, oddiy fukarolar uchun xam ancha foydali xisoblanadi, sababi, uning daromadlari solikka tartilmaydi. Respublikamizda uch oylik qisqa muddatli zaem obligatsiyalari bo'yicha birinchi savdolar 1996 yil 28 martda bo'lib utdi. Jamgarma obligatsiyalari va fyuchers bitimlari O'ZBEKISTON kimmatli qog'ozlar bozorida xali uncha rivojlanmagan.

Bank veksellari O'ZBEKISTONda ancha keng rivojlangan. Respublika banklari kimmatli qog'ozlar emissiyasining umumiy xajmida ular nofoizga yakinni tashkil etadi. Xozirgi kunda respublika tijorat banklarining deyarli yarmi veksellar chiqarish bilan shugullanadi. bu veksellarning Iqtisodiyotdagi axamiyati shundaki, ularning xar bir sumi Respublikani XIX asridagi o'zaro qarzlarning 6 summdan ortigini o'zdi. Agar depozit sertifikatlariga kelsak mazkur moliyaviy vosita O'ZBEKISTONda endigina paydo bulmokda, respublika tijorat banklari kimmatli qog'ozla umumiy miqdorida ular 2% dan oshmaydi (1997 yilga). O'ZBEKISTONda pul bozori rivojlanaetganligiga yana bir misol 1996 yildan boshlab pullarning yangi eng zamonaviy xillaridan biri – plastik kartochkalar muomalaga chiqarildi. Uning afzalligi shundaki uning egasi birinchidan, kartochkani kabul kiluvchi banklar va bank bulimlarida naqd pul olish, ikkinchidan, xizmatlar va tovarlarga xak tulashlari mumkin.

Shunday kilib mustakil O'ZBEKISTON Respublikasida xam moliyaviy bozor va uning unsurlari rivojlanib bormokda.

Nazorat uchun savollar.

1. Nima uchun pul bozorini moliya bozorining tarkibiy qismi deyiladi?
2. Xazina veksellari nima?
3. Obligatsiya va aktsiyani bir biridan farki nima?

4. Pul bozoriga doir operatsiyalar qanday tashkil etiladi?
5. O'ZBEKISTONda xozirgi kunda pul bozorini rivojlantirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmokda?
6. Veksel va uning axamiyati nima?
7. Bank vekselar bilan qanday operatsiyalarni bajaradi?
8. Veksellarni muomilaga kiritish tartibi qanday?
9. Vekselni diskont va sotiladigan turi bormi?
10. Imtiyozli aktsiyani qanday afzalliklari bor?

6. ma'ruza: Pul tizimi va uning tarkibi.

Reja:

1. Pul tizimining tarkibiy qismlari.
2. Bimetalizm.
3. Manometalizm.
4. Respublikada mustakil pul tizimini shakllanishi va rivojlanishi.

Tayanch ibora. Tovar, pul tizimi, pul birligi, baxo masshtabi, emissiya, pul massasi, elektron pul, bimetalizm, monometolizm, kredit pul, chek.

Pul to'g'risida umumiy tushunchaga ega buldik, pul bozori moliya bozorining ajralmas qismi ekanligini bilib oldik. Iqtisodiy adabiyotlarda to'g'ri ishlovchi pul tizimi daromad va xarajatlar aylanma xarakatiga xaetli kuch bagishlaydi degan ibora bor. Da xakikat to'g'ri ishlovchi pul tizimi mamlakat er sharining kaerida joylashgan bulishidan kat'iy nazar, uning butun Iqtisodiyotini o'zida namoyon etadi. Samarali ishlovchi pul tizimi jamiyatning barcha imkoniyatlaridan tula foydalanishga erdam beradi. Va aksincha, eman ishlovchi pul tizimi ishlar, ish bilan ta'minlash va Iqtisodiyotdagi narx-navo darajasining keskin o'zgarib turishiga asosiy sababa bo'lib, milliy pul birligining xarid kobiliyatini zaiflashtiradi. Shunday ekan pul tizimi nima degan savol tuziladi. Pul tizimi-turli mamlakatda tarixan vujudga kelgan va odatda konun xujatlari bilan mustaxkamlab qo'yilgan pul muomalasining tashkiliy shakllari xisoblanadi. Xozirgi pul tizimi XVI-XVII asrlarda vujudga kelgan. O'ZBEKISTON Respublikasi esa 1992 yildan boshlab o'zining mustakil milliy pul tizimiga ega buldi. Agar pul tizimini tavsiflasak uning eng muxim tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat ekanligi ma'lum bo'ladi:

1. Tovarlar va xizmatlar narxlarini ifadolovchi milliy pul birligi;
2. Naqd oborotda konuniy to'lov vositasi vazifasini bajaruvchi kredit va qog'oz pullar, mayda tangalar tizimi.
3. Pul emissiyasi tizimi, konuniy tarzda mustaxkalangan ya'ni muomalaga pul chiqarishning tartibi.

4. Pul muamolasi masalalarini tartibga soluvchi muassasalar.

Demak tavsifdan xulosa shuki pul tizimi qisqa ma'noda quyidagi asosiy unsurlari (elementlari) mavjud:

1. Pul birligi.
2. Baxo masshtabi.
3. Pul turlari.

4.Emissiya tizimi.

5.Muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi davlat muassasasi.

Endi bularning xar biriga qisqacha tushuncha berib ketaylik.

Pul birligi-mamlakatdagi to'lov vositasi birligi bo'lib, asosan tovarlar qiymatini ulchash va muamola vositasi sifatida xizmat qiladi. Xar bir mamlakatning o'z mustakil pul birligi bo'ladi, masalan, AKShda dollar, Buyuk Britaniyada - funt sterling, Germaniyada - marka, Yaponiyada - ien va boshqalar, Respublikamizda sum pul birligi vaz. bajaradi.

Baxo masshtabi - mamlakat pul birligining oltin yoki kumushdagi ifodasi. M:1 AKSh dollari 0,88 g oltin asosiga, sobik SSSR rubli esa 0,98 g oltin asosiga ega edi. Xalkaro valyuta fondining Yamaykada bo'lib utgan sessiyasida 1976 yildan boshlab oltinning kat'iy belgilangan jaxon baxosi bekor kilindi, ammo milliy valyutalarning oltin zaxirasi bilan bievosita bog'liqligi saklanib koladi.

Pul turlari - qog'oz pullar (1,3,5,10,25,50,100,200) kredit pullar (Davlat banki biletlari)

Tangalar - ikki xil - nikel va bronzadan tayerlanadi qog'oz pullarga erkin almashtiriladi.

Elektron pullar.

Emissiya tizimi - bu muomalaga bank biletlari, xazina biletlari, qog'oz pullar va kimmatbaxo qog'ozlarni chiqarishdir. Pul emissiyasini davlatning Markaziy (emissiya) banklari amalga oshiradi. Kimmabaxo qog'ozlarni davlat, banklar, aktsioner jamiyatlar chiqaradi. Emissiya chiqaruvchi idora yoki korxona emitent deb ataladi.

Muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi davlat muassasasi bo'lib Markaziy bank xisoblanadi.

Muomaladagi pul turlariga qarab, vakt utishi bilan pul muomalasining ikki tizimi ajralib chikdi.

1. metall tangalarning muomaladagi tizimi.

2. kredit va qog'oz pullar tizimi.

Metall pullar tizimi o'z navbatida ikki turga bulinadi.

1.Bimetalizm

2.Manometalizm

Bimetalizm – bu pul tizimida mustakil unsur bo'lib, bunda ikki metaga: oltin va kumushga konuniy tartibda umumiy ekvivalent roli biriktirib qo'yiladi. Bu metallardan erkin ravishda tangalar zarb kilinadi va ular muomalada erkin xarakatda bo'ladi.

Tarixan Bimetalizmn 3 ta kurinishi mavjud bo'lgan.

Parallel valyutalar tizimi. Bunda oltin va kumush tangalar urtasidagi nisbat bozor baxolariga mos ravishda stixiyali tarzda urnatilgan.

Ikki eklama valyutalar tizimi. Bunda oltin kumush tangalar urtasidagi nisbat davlat tomonidan belgilab qo'yildi.

Oksoklanuvchi valyuta tizimi. Bunda oltin kumush tangalar konuniy to'lov vositalari xisoblangan bo'lsalarda kumush tangalarni zarb etish epik tarzda, oltin tangalarni zarb etish esa erkin xolda amalga oshirishgan yoki tadbir joiz bo'lsa Bimetalizm o'zining kumush oegida oksaklanib qolgan.

2.Ikkiyoqlama vamotalar tizimi. Bunda oltin va kumush tangalar urtasidagi nisbat davlat tomonidan belgilab qo'yilgan.

3. "Oksoklanuvchi" valyuta tizimi. Bunda oltin va kumush tangalar konuniy to'lov vositalari bo'lsada, kumush tangalar epik xolda, oltin valyutalar (tangalar) esa ochik xolda zarb etilgan.

Monometallizm - bu xam pul tizimida mustakil element bo'lib, bunda bitta metallga barcha tovar qiymatini o'zida aks etdiruvchi umumiy ekvivalent roli beriladi. Bu metall albatta oltindir.

Oltin monometallizmi birinchi marta XVIII asrning oxirida yur-timizda joriy etilgan edi (1816 y).

Pul tuzimlari xakida gapirar ekanmiz. Tomas grexem (XVI asrda yashagan angiyalik bankir) konuni xakida fikr yuritish foydadan xoli bo'lmaydi. Bu konunning moxiiyati shundaki sanoat endigina paydo bo'lib rivojlana boshlagan davrdanok pul "yomon" va "yaxshi" pullarga bulingan. Bu konunga muvofiq "yomon" pullar "yaxshi" pullarni chetga surib chiqaradi. Demak infilyatsiya natijasida muomalaga kushimcha pullarning chiqarilishi "yaxshi" pullarning pinxoni (xufiya) Iqtisodiyotga utib ketishiga, bank sinflariga yashirib qo'yilishiga, fukoralarning kulida tuplanib kolishida sabab bo'ladi. T. Grexem konuni bugungi kunda xam o'z axamyatini yo'qotgani yo'q. Ayniksa mustakillikka erishgan davlatlarda muomalaga kushimcha pullarning chiqarilishi "yaxshi" va "omon" pullarni paydo bulishiga sabab bo'ladi. Endi kredit va qog'oz pullar tizimining taxliliga utamiz.

1929-1933 yillardagi jaxon Iqtisodiy tangligi pul tizim-larining yangi turi - kredit vaqog'oz pullar tizimining shakllanishiga asos buldi. Bu tizimning tarkibiy elementlari qo'ydagilardan iborat:

1. Kredit pullarning ustivor mavkei;

2. Oltinning muomaladan chikib ketishi, banklar qarzining oltin bilan ulchanishini bekor kilinishi;

3. Davlat tamonidan tadbirkorlik soxasini keng kreditlash maqsadida pul emissizligini kupaytirilishi;

4. Naqd pulsiz xisob-kitob ishlarining sezilarli darajada kengayishi;

5. Pul muomalasini davlat tamonidan tartiblanishi va berilishi.

Ma'lumki, muomala jarayonidan tashkarida qog'oz pullar xech qanday kimmatga ega bo'lmagan varakchalar bo'lib koladi. Pul bosish dasgoxlaridan chikayotgan banklar xali pul emas. Ular oborotga chiqarilganidan keyingina tom ma'nodagi pulga aylanadi.

U yoki bu mamlakatda ishchilar kuchlari rivojlangani sayin muomaladagi qog'oz pullar tavari kamayib, ular urniga kredit pullar egallay boshlaydi.

Kredit pullarning uch asosiy turi bor: veksil, bank, va chek.

Veksil to'g'risida avvalgi ma'ruzalarimizda tavsif bergan edik.

Veksillar naqd pul ishtirokisiz o'zaro xisob-kitoblar yuli bilan koplanadi degan edik.

Unga kushimcha tarzda aytish mumkinki veksil muomalasining xam o'z chegarasi bor.

- 1-dan, u tovar obarotining fakat bir qismini, asosan ulgurji savdoni kamrab oladi;

- 2-dan, o'zaro xisob-kitoblar urtasidagi fark baribir naqd pul tulanishni talab kiladi;

- 3-dan, veksillar cheklangan soxalarda aylanadi;

- 4-dan, veksillar aylanishi uning muddati bilan cheklab qo'yiladi.

Shu sababli muomala chegarasi banknotlar yordamida betaraf etiladi. Banknotlar bank biletlari, markaziy emissiya banklari tamonidan chiqariladigan pul belgilari (asosan qog'oz pullar) bo'lib, ular tovarlar massasi va davlatning oltin zaxirasi bilan ta'minlangan bo'ladi.

(O'ZBEKISTON Respublikasida 1, 3, 5, 10, 25, 50, 100, 200, sum qiymatida muomalaga chakiriladi). Aslida Banknotlar qog'oz pullardan fark qiladi. Qog'oz pullar muomalaga xazinasidan chiqarilsa, Banknotlar tijorat banklari tamonidan chiqariladi, qog'oz pullar xech narsa bilan ta'minlanmagan bo'ladi. Xozirgi vaktida Banknotlar bilan qog'oz pullar urtasidagi farklar yo'qolib bormokda.

Bozor Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi xisob-kitob ishlarida cheklar kup tarkalgan. Chek - maxsus pul xujjati bo'lib, chekni imzolagan yuridik yoki jismoniy shaxsning joriy xisobidan muayyan summani berish yoki boshqa xisobga o'tkazish xakida bankka berilgan yozma farmoyishdir. Soddarok aytsek: chek - mijozning (bankdagi schet egasining) banka unda kursatilgan mablag'ni naqd pulda berilishi yoki boshqa bir kursatilgan schetga o'tkazilishi to'g'risidagi buyrug'idir.

Chek turlari: muayyan bir shaxs nomiga yozib beriladigan cheklar, limitlangan va limitlanmagan cheklar, kafolatlangan va kafolatlanmagan cheklar.

Cheklar bilan xak tulash ayniksa mamlakatimizning ichki to'lov oborotida kup rivojlangan, biroq, ulardan eksport va import, chet el sayoxligi bo'yicha xisob-kitoblar xamda nosavda to'lovlari chogida tashki to'lov oborotida xam foydalaniladi.

Garb Iqtisodiyotchilari kelajakda Banknot va cheklar butunlay yo'qolib ketadi xamda ular urnini elektron banklari transaksiyalar egallaydi deb aytishmokda. Bu gapda jon bor. Bunday xolatda pul yo'qolib ketmaydi, lekin u "kurinmas" va "chakkon" bo'lib koladi.

O'ZBEKISTON bu soxada katta yutuklarga erishmokda. Respublikamizda barcha tijorat banklari elektron to'lovlar tizimiga kushilgan.

Oltin moneta standarti quyidagi beshta Iqtisodiy xolatning namoyon bulishini anglatadi:

1. Oltin tangalar mumomalada ekin xarakatda bo'ladi.
2. Oltin pulning barcha vazifalarini buyniga oladi.
3. Oltin tangalar erkin zarb etiladi.
4. Qiymatning barcha belgilari oltinga bemalol almashtiriladi.
5. Yuridik va jismoniy shaxslar xamda davlatlar o'rtasida cheklanmagan miqdorda xarakat kila oladi.

Demonetizatsiya nima?

Oltinni demonetizatsiya qilish deganda uni pulning barcha vazifalarini bajarishdan maxrum etish tushiniladi. 1976 yil 1-yanvardan boshlab Xalqaro Valyuta fondi tamonidan (XVF-1944 yilda, 180 dan ortik mamlakatlar a'zo) oltinning kat'iy belgilangan jaxon baxosining bekor kildi. Uning kamchiliklari, 1-dan, valyutaning xavf-xatarini kuchaytirdi;

2-dan, xalkaro kreditlarni tulash ancha kiyinlashmay koldi.

3-dan, davlatlar birin-ketin to'lovga nokobilligini e'lon kila oshladilar.

Respublikamiz pul tizimining asosiy usullari quyidagilardan iborat.

1. Pul birligi - sum.
2. Sumning nominal qiymati 1,3,5,10,25,50,100,200 sumlik kupyurala-ridan iborat.

3. Baxo masshtabi-1 sum 100 tiyindan iborat.
4. Muomaladagi pul turlari-qog'oz pullar va metal tangalar.
5. Emissiya tizimi. Muomaladagi pul ikki pog'anali bank tizimi sharoitida chiqariladi. Fakatgina Markaziy bank emissiya qilish xuquqiga ega.

Markaziy bank chiqarilgan pulni tijorat banklariga kreditga berish yuli bilan muomalaga chiqaradi.

6. Muomaladagi pul massasini tartibiga soluvchi davlat muassasiga bo'lib rasmiy ravishda Markaziy bank xisoblanadi.

Nazorat uchun savollar.

1. Pul tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Bimetalizm va monometalizm nima?
3. Oltin moneta standarti deganda nimani tushunasiz?
4. Emissiya tizimi nima?
5. O'ZBEKISTON Respublikasi pul tizimi qanday?
6. Bimetalizm qanday kurinishlari mavjud?
7. Parallel valyuta tizimi deganda nimani tushunasiz?
8. Oksoklanuvchi va lyuta tizimi nima?
9. Demonetizatsiya nima?
10. Kredit pullarni qanday turlari mavjud?

7. Mavzu Inflyatsiya va uning moqiyati, turlari va ta'siri.

Reja:

1. Inflyatsiyaning mohiyati va kurinish shakllari, inflyatsiya jarayoni, konuniyatlari, inflyatsiya turlari.
2. Inflyatsiyaning iktisodga ta'siri.
3. Pul isloxotlari, valyutani barkarorlashtirish usullari.

Asosiy iboralar:

Inflyatsiya, pul isloxatlari, devalvatsiya, revalvatsiya, inkiroz.

Inflyatsiya lotincha "inflatio" suzidan olingan bulib "ish", "burtish", "kupchish" degan ma'noni anglatadi. Bu suz XIX asrning urtalaridan boshlab iktisodchilar tomonidan iktisodiy termin sifatida ishlatilguncha kadar, u tibbiyotda xavfli usma kasalini ifodalashda kullanilgan.

Tarix xakikatda ham bu suzning har tomonlama xavfli ekanligini kursatdi. Chunki inflyatsiya kandaydir aloqida olingan bozorda tovarlar va xizmatlar narxining usishidagina iborat bulmasdan, bu umumiktisod uchun xavfli hodisadir. Inflyatsiya suzining iktisodiy ugirtmasi - muomalada mavjud bulgan tovarlar va ularning bahosiga nisbatan kup pul chikarish degan ma'noni anglatadi.

Iktisodda inflyatsiyaning yakuni tovarlar bahosining usishiga, koniktirilmagan, lekin kisman tulanishi mumkin bulgan talablarning vujudga kelishga olib keladi. Odatda inflyatsiyaning bu turi - klassik inflyatsiya deb yuritiladi. Inflyatsiya suzi Pul muomalasi sohasida AqSh ning Shimoliy va Janubiy shtatlari urtasida grajdanlar urushi bulganda muomalaga juda kup mikdorda (450 mln. grin bek) kogozi dollar chikarilgan vaktdan boshlab kullanila boshlagan. Ularning sotib olish kobiliyati ikki yildan keyin 50 foizlargacha tushib ketgan. Agar tarixga e'tibor beradigan bulsak, urush va boshka ofatlar

sababli davlat xarajatlarning oshib ketishi, inflyatsiya bilan uzviy boglik. Masalan, Angliyada kuchli inflyatsiya XIX asrning boshida Napoleon bilan urush davrida, Frantsiyada - frantsuz revolyutsiyasi davrida, Rossiyada XIX asrning urtalarida namoyon bulgan. Germaniyada juda yukori sur'atlardagi inflyatsiya 1923 yillarda bulib, muomaladagi pul massasi 496 kvintillion markagacha etgan va pul birligi trillion marta kadsizlangan. Bu tarixiy misollar kursatadiki, inflyatsiya hozirgi davr jarayoni bulmasdan, tarixan mavjud bulgan jarayondir.

Soliklar tizimi Respublika byudjeti tizimining tarkibiy qismi bo'lib, davlatda undiriladigan solik va yigimlarning, shuningdek ularni undirish shakl va usullarining majmuidir. U davlat xarajatlarining katta qismini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga davat etilgan va takror ishlab chiqarish jarayoniga va ijtimoiy munosabatlar soxasiga ta'sir kursatishning Iqtisodiy usullarini amalga oshirish uchun foydalaniladi. Solik tizimining tarkibi jamiyat barcha ijtimoiy katamlari, eng avvalo ijtimoiy jixatdan eng nochor tabakalar manfaatlariga buy sundirilgan xamda respublika axolisining turmush darajasida zarur muvozanatni ta'minlashni kuzda tutadi.

Byudjet jareni davlat dromadlari va xarajatlarini balanslashni (tengalashtirishni) takozo etadi. Birok maliyotda deyarli xamma mamlakatlarda xozirgi vaktida davlat xarajatlarining daromdlardan anchagina mikesda oshib ketish kuzga tashlanadi. Xaetning turli soxalarnda davlat rolining o'zluksiz oshib borish, uning Iqtisodiy va ijtimoiy funkiyalari kegayishi, xarbiy xarjatlarning, davlat aparati x'odimlarining kupayish va xokazolar byudjet kamomadi kupayib ketishiing asosiy sabablari xisoblanadi. Byudjet xarajatlarining kupayishi solik tushumlarining shak – shubxasiz kupayishiga olib kelmaydi, kup mamalkatlarda byudjet kamomadining kupayishi o'zluksiz tus va keng mikes kasb etadi.

Byudjet kamomadlarining dinamikasi xo'jalik kon'yukturasining joriy o'zgarishlari, ishlab chiqarishning vakti-vakti bilan tushkunliklar va yo'qsalishlarini xam aks ettiradi. Kayta ishlab chiqarishning siklik buxronlari davrida byudjetga solik tushumlari summasi kamayadi. Ayni vaktida davlat ijtimoiy extiyojlarga (ishsizlik nafakasi va b.), shuningdek Iqtisodiyotning muayyan soxalarini kullab-kuvatlash, umumdavlat axamiyatiga ega

bo'lgan tarmoqlarda investitsiyalar hajmini saklab kolish uchun o'z xarajatlarini kupaytirishga majburdir.

Davlat moliyasining chukur balanslanmaganligi okibati bo'lgan byudjet kamomadlari o'z navbatida pul muomalasi soxasida chukur larzalarning sababchisi buldi. Byudjet kamomadlarini tartibga solish xozirgi davlatning Iqtisodiyot soxasidagi faoliyatining eng keskin muammolaridan biriga aylandi.

Davlat krediti byudjet kamomadlarini koplashning eng muxim shartiga aylandi. Davlat keriditi deganda davlat qarz oluvchi yoki kreditor sifatida maydonga chikadigan moliyaviy-Iqtisodiy munosabatlarning butun majmiu tushuniladi. Byudjet kamomadlarini koplash uchun davlat qarz oluvchi sifatida chikadi. Davlat moliya resurslarini o'zgartirish asosiy shakli davlat zaem obligatsiyalarini chiqarishdir. Ularni joylashtirish mobaynida davlat axoli, banklar, sugurta va sanoat kompaniyalarini vaktincha bo'sh bo'lgan pul mablaglarini jalb etadi. Davlat qanday manbalar xisobiga o'zi uchun zarur resurslarni safarbar etishi masalasi pul muomalasi xolati va umuman Iqtisodiyot faoliyati uchun goyatda muxim axamiyatga egadir. Agar xazina majburiyatlari xususiy sektorda joylashtirilsa, pul resurslarining vaktincha ularningxususiy egalaridan davlatga kayta taksimlanishi yuz beradi. Buning uchun davlat xazinasini o'z qog'ozlarini sarmoya egalarini kiziktira oladigan etarlicha yo'qori foizlar bilan chiqarishi kerak. Davlat qarzi bo'yicha foizlar tulanishi byudjetning asosiy xarajat moddalaridan biri xisoblanadt. Shunday kilib, davlat qarzlarini xususiy sektorda joylashtirish o'z navbatida byudjet xarajatlarining yanada kupayishiga imkon yaratadi.

Lekin xazina o'z majburiyatlarini fakat xususiy sektorda joylashtiribgina kolmay, ularni Markaziy (emissiya) bankda xisobga olishi xam mumkin. Xazina majburiyatlarini xisobga olib, bank muomalaga tovar massasining kupayishi bilan boglanmagan to'lov vositalariningkushimcha hajmini chiqaradi. Bunday xolda yuz beradigan «davlat qarzi pulga aylantirish» kup mamlakatlar uchun ancha tipik bo'lgan vaziyatni namoyon etadi, ya'ni davlatning xaddan tashkari bo'lgan xarajatlarini moliyalash pul muomalasini barkarorligini kuporishda bevosita sababga aylanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, xukumat ssuda sarmoyalari bozoriga qarz oluvchi sifatida kadam qo'yganida, bu narsa pul resurslarining talab va taklifi nisbatiga sezilarli ta'sir kursatadi. Foiz stavkalari anchagina oshadi, buning natijasida kapital qo'yilmalarni moliyalashning umumiy shart-sharoiti emonlashadi va investorlar bir qismini pul bozoridan o'ziga xos «sikib chiqarish» yuz beradi. Ana ush sababdan kelib chikib, kredit xisobiga moliyalanadigan iste'mol xarajatlari bir qismining xam qisqarishi extimoldan xoli emas. Davlat qarzlarining bunday okibtlari iktodiy nazriyada ikib chakarish effekti nomini olgan. Davlat kreditini rivojlantirish dvalat qarzi boshqarishning ncha murakkab tuzilmasini yaratish bilan boradi. Yangi zayemlar hajmlarini, ularni chiqarish muddatlarini, xazina majburiyatlarini bo'yicha foiz hajmlarini, ularni joaylashtirish usullarini belgilash ushbu bobdagi eng muxim tadbirlar xisoblanadi.

Davlat zaemlari turli muddatlarga chiqariladi va ana shu belgiga ko'ra qisqa muddatli, urta muddatli va o'zo? muddatli zayemlarga bulinadi.

Ular orasidagi tafovutlr ancha shartli. Odatda qisqa muddatli zayemlarga 1 yilgacha bo'lgan, urta muddatli zayemlarga 3-5 yilgacha, o'zo? muddatli zayemlarga 5 yildan ortik muddatga doir zayemlar kiritiladi.

Muddati bo'yicha qarzni turli xillari urtasidagi nisbat masalasi davlat qarzi boshqarish uchun muxim axmiyat kasb etadi. Inflyatsiya tamoyillarining kuchayishi va

pul muomalaini umumman olganda barkarorizligi sharoitida qisqa muddatli qarzlarning salmogi oshadi. Pullarning jadal inflyatsion kadsizlanishi sharoitida investorlar o'z mablaglarini xukumatning o'zo? muddatli majburiyatlariga qo'yishdan kochadilar, kreditorlar inflyatsiya jarayonlari ta'sirida kadrizlanishi xavfi bilan kamrok boglangan qisqa muddatli xazina majburiyatlarini afzal ko'radilar. Davlat qarzining muntazam tusda kupayishi okibatida milliy daromad foiz to'lovlari shaklida borgan sar kuprok kayta taksimlanadi. Yirik byudjet kamomadlari va davlat majburiyatlari bo'yicha foiz to'lovlari usishi sharoitida xazina qarzlarni tulash vaktini iloji boricha orkaga surishga xarakat kiladi. Ana shu maqsadda davlat zayemlarini konversiyalash tajribasi kullaniladi. Bunda malga oshirilaetgan tadbirlarning moxiyati shundan iboratki, qarzni o'zish muddati orkaga surilsin, davlatning qisqa muddatli majburiyatlari imkoni boria urta va o'zo? muddatli majburiyatlarga aylantirilsin. Bunda turli usullardan foydalanishlari mumkin. Xazina o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini (investorlar roziligi bilan) urta va o'zo? muddatli zayemlarga almashtirish mumkin. U o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini ancha yo'qori fioz bilan yangi o'zo? muddatli zayem chiqarish xisobiga sotib olishi mumkin. Bu xil tadbirlar qisqa muddatli samara berishi va xukumatning moliyaviy axvolini bir oz engilliashtirishi mumkin, lekin ular byudjetni mustaxkam barkarorlashtirishga erdam bera olmaydilar., zero odatda ular fioz stavkalarini yanada oshirishva piravardida qarzlarning umumiy summasi usishi bilan boglangandir. Davlat qarzini boshqarishning ancha murakkab mexanzmidan foydalanib, xazina byudjet kamomadlarini koplash uchun mikesiga ko'ra ulkan moliyaviy resurslarni jalb etishi mumkin . biroq davlat moliyani tartibga solganda fakat byudjetning balanslanganiga erishishni kuzlamaydi. Bundan tashkari, byudjet va kredit-pul siyosati makroIqtisodetni tartibga solshning ancha keng vazifalarini xam xal etishga yunaltirilgan. Antitsiklik siyosat yuritish, ish bilan bandlikni tartibga solish, to'lovga kobillikning umumiy darajasi va umuman faol ishbilarmonlikni tartibga solish shular jumlasiga kiradi.

Talabning etarlicha emasligi va Iqtisodiy faollik umumiy darajasining pasayishi, Iqtisodiyotning buxronga yuz tutishi xavfi sharoitida byudjet xarajatlarini kupaytirish va soliklarni pasaytirish chora-tadbirlari omaalga oshirilmokda. Davlat xarajatlarining jadal oshishi yalpi talabning umumiy xajmini kupaytirmokda. Soliklarni pasaytirish ayniksa urta va mayda kompaniyalarning kapital qo'yilmalari kupayishi uchun ancha kulay shar-sharoit yaratadi. Bunda soliklar kamayishi davlat xarajatlarining mukarrar ravishda davlat byudjetlari kamomatini kupaytirish va infilatsiya jarayonlarini kupaytirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Xarajatlarning daromadlaridan bunday oshib ketishi aktiv byudjet kamomadlari nomini oldi. Ayni vaktida Iqtisodiy faollik tushkunligi natijasida davlat daromadlarining qisqarishi yuzaga keltirgan kamomadlar passiv kamomadlar nomini oldi.

Kamomadli moliyalash kontseptsiyasi yangi keynischalik yunalishiga mansub Iqtisodchilarning nazariy ishlanmalarida muxim urin egaladi. Uning asosiy koidalaridan Garb Iqtisodchilari urishdan keyingi davrda Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solishi madellarini ishlab chikishda xukumat doiralariga amaliy tavsiyalarni ishlab chikishda keng foydalandilar. Shu bilan birga kamomadli moliyalash goyalarini amaliyotda ruebga chiqarish kutilganidek samarali bo'lib chikmadi. Ayniksa 60-yillar va 70-yillar boshida namoyon bo'lganidek, uni kullanish Iqtisodiyotning inflyatsiyaga borkaror emasligini anchagina kuchaytirgani ushbu kontseptsiiyaning eng noxush qismiga

aylandi. Aktiv byudjet kamomadlari bundan kolishmagan xolda qarzni pulga aylantirishga, pul massasini xakikatda nazoratdan xoli ravishda kupayishiga va milliy valyutalarning kadsizlanishga imkon yaratdi. Shu tarzda o'zo? muddatli kurinishda aktiv byudjet kamomadlari muayyan sharoitda axolining xarid kobiliyati pasayishi va Iqtisodiyotga davlat xarajatlari samarador ta'sirining pasayishi sababchi bulishi mumkin. Bunday sharoitlarda Iqtisodiyotni «sovutish», inflyatsion kizib ketishlarga karshi ko'rash davlat tomonidan tartibga solishning eng muxim muammolaridan biriga aylandi.

Deflyatsion (inflyatsiyaga karshi) tadbirlarning murakkabligi shundaki, ular davala xarajatlari qisqartirilishini, kredit kimmatlashishini, pul massasi sikuvga olinishini takozo etadi. Bularning xammasi o'z navbatida yalpi talabni jilovlashga, kapital qo'yilmalarni pasaytirishga, demak, faol ishbilarmonlikning tushkunligi va ishsizlikning kupayishiga imkon yaratadi.

Shunday kilib, davlat qarzlari muammosi pul muomalasi, byudjet siyosati, Iqtisodiy faollikka va ijtimoiy soxadagi jarayonlariga davlat ta'siri samaradorligi muammolarining murakkab majmui bilan bevosita boglangan.

Nazorat uchun savollar.

1. Davlat byudjetini moxiyati nimadan iborat?
2. Davlat byudjeti moliya tizimida qanday urin tutadi?
3. Davlat byudjetini daromad nimalardan tashkil topadi?
4. Davlat byudjeti xarajatalari qanday maqsadlarga sarflanadi?
5. Davlat byudjeti kamomadi deganda nimani tushunasiz?
6. Davlat byudjeti kim tomonidan tasdiklanadi?
7. O'ZBEKISTON Davlat byudjeti necha bugindan iborat?
8. Davlat byudjeti daromadlar va xarajatlar balansi nima?
9. Davlat byudjeti kamomadini koplash uchun qanday chora tadbirlar kulaniladi?
10. Davlat zayomlari nima maqsadda chiqariladi?

18.Mavzu. Moliya kredit siyosati

Reja

1Moliya-kredit siyosatini tartibga solish - iqtisodiy barnarorlik.

2Moliya siyosati mexanizmi.

3Bank nazorati va moliya muassasalari faoliyatini rivojlantirish yo'llari.

1. Moliya-kredit siyosatini tartibga solish— iqtisodiy barqarorlik

O'z navbatida keyingi maqsadlarni aniq ifodalash uchun pul-kredit sohasida vujudga kelgan amaldagi vaziyatni ob'yektiv baholash hamda ushbu vaziyatda ilgari rejalashtirilgan maqsadlarning aks etish tabiatini taxlil qilish zarur. Moliya-kredit siyosatini ishlab chiqadigan va amalga oshiradigan organlar bozorda yuz berayotgan xodisalarni ko'zatib borish hamda nazorat qilishi kerak.

Bundan tashqari u samarali vositalarga ham ega bo'lishi kerak. Bu vositalar yordamida mavjud ahvolga kerakli yo'nalishda ta'sir ko'rsatish imkoniyati tug'iladi.

Pul massasining xaddan tashkari ko'payishi mamlakatda ishlab chiqarilgan yoki chetdan keltirilgan tovarlarga qilinadigan harajatlarning yuqori sur'atlar bilan o'sishiga ya'ni narx-navoning kutarilishiga olib keladi. Agar qisqa muddat ichida mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarni taklif qilish moslanuvchanmasligi bilan tubdan farq qilishini hisobga oladigan bo'lsak, iqtisodiyotda yuksak o'sish sur'atlari tufayli ancha-muncha inflyatsiya vujudga keladi. Mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlarning cheklangan miqdorda taklif qilinishi tufayli pul mablag'larining talaygina qismini chetda ishlab chiqarilgan tovarlarga yo'nalitirilishi oqibatida to'lov balansida tang xolat yuz beradi.

Iqtisodiyotga tizimli to'zatislar kiritish bo'yicha tizimlarni amalga oshiriladigan mamlakatlarda inflyatsiyaning yuqori darajasi sust iqtisodiy o'sishi va tashqi balansning notengligi bilan ajralib turadi.

Moliya-kredit siyosatining maqsadi mamlakat ichida likvidlikni o'sishi, hukumatning iqtisodiy o'sishi, inflyatsiya va to'lov balansiga doir maqsadlarga mos kelishi kerak. Shu jihatdan olganda, pul agregatlarini nazorat qilish choralari iqtisodiyotga to'zatis kiritish tadbirlarida muhim rol uynaydi. O'zbekiston iqtisodiyotini barqarorlashtirish strategiyasi nuqtai nazaridan qaraganda pul-kredit siyosati ortiqcha harajatlarning oldini olish kerak. Keng ma'noda aytganda, moliya siyosati iqtisodiyotda resurslardan foydalanishning samaradorlik darajasini belgilab beradi, moliyaviy mablag'larni safarbar etish va ulardan foydalanish jarayonlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarning ko'p yillik tajribasi, muomalada amaliy faoliyatning ma'lum hajmi uchun zarur bo'lgan, to'la ish bilan bandlikka, narxlar darajasining barqarorligiga va iqtisodiy o'sishning sog'lom sur'atlariga yordam beradigan miqdorda pul bo'lishini ta'minlashga harakat qilgan holda, pul taklif qilishni boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

Pul-kredit siyosati iqtisodiy pasayish davrida harajatlarni rag'batlantirish uchun pul taklif qilishning ko'payishiga, inflyatsiya davrida, aksincha, harajatlarni cheklash uchun pul taklif qilishning cheklanishiga olib kelishi zarur.

Kon'yuktura jonlangan, ish bilan bandlik va ishlab chiqarish hajmlari usgan sharoitda pulga talab oshishi munosabati bilan Markaziy bank «arzon pullar» siyosatini yoki pul-kredit siyosatida ekspansiyaning qo'llaydi. Bunda kreditlash ko'lemi kengayadi, muomaladagi pullar miqdorining o'sishi ustidan nazorat susayadi, foiz stavkalari darajasi pasayadi.

Pul taklif qilishning ko'payishi uchun Markaziy bank tijorat banklaridagi ortiqcha zaxiralarning o'sishi haqida kaygurishi zarur. Bunday holatda aniq; chora-tadbirlar ko'rish kerak.

Birinchidan, ochiq bozorda qimmatli qog'ozlarni sotib olish operatsiyalarini kengaytirish zarur;

Ikkinchidan, zaxiralash normasini pasaytirish kerak, bu xol o'z-o'zidan zarur zaxiralarni ortiqcha zaxiralar holatiga o'tkazadi va pul mul'tiplikatorining miqdorini ko'paytiradi; Uchinchidan, tijorat banklarini Markaziy bankdan qarz olish vositasida o'z zaxiralarni ko'paytirishga undash uchun hisob stavkasini kamaytirish muhimdir. Markaziy bank tomonidan qo'llaniladigan bunday siyosiy qarorlar turkumi arzon pullar siyosati deb ataladi.

Bu siyosatni amalga oshirishdan maqsad jami harajatlar hajmini va ish bilan bandlikni ko'paytirish uchun kreditni arzon va oson olish mumkin bo'ladigan qilib quyishdan iboratdir.

Inflyatsiya va iqtisodiyotdagi nomutanosibliklar kuchayib borgan, chayqovchilik kengaygan bir sharoitda Markaziy bank pul massasini chegaralash yordamida kon'yukturani oldini olishga harakat qiladi va u holatda Markaziy bank quyidagi chora-tadbirlarni ko'radi;

tijorat banklarining zaxiralarini qirqish yo'li bilan pul massasini qisqartirish uchun ochiq bozorda tijorat banklari va aholiga davlat qimmatli qog'ozlarini sotish bo'yicha operatsiyalar kengaytiriladi;

tijorat banklarini ortikcha zaxiralardan o'z-o'zidan ozod qilish hamda pul mul'tipikatorini kamaytirish maqsadida zaxiralash me'yori oshiriladi.

tijorat banklarining Markaziy bankdan qarz olish vositasida o'z zaxiralarini

ko'paytirishga bo'lgan qiziqishini kamaytirish maqsadida hisob stavkalari ko'tariladi.

Markaziy bank tomonidan kuriladigan bu chora-tadbirlarni «qimmatli pullar» siyosati yoki pul-kredit siyosatining restriksion turi deb ataladi, 4 tijorat banklari amalga oshiriladigan kredit operatsiyalarini shartlarini qiyinlashtirishga va hajmlarini cheklashga qaratilgan. Uni amalga oshirish soliqlarning oshirilishi, davlat harajatlarini qisqartirilishi, inflyatsiyani jilovlashga, bir qancha hollarda esa to'lov balansini sog'lomlashtirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o'z ichiga oladi. Pul-kredit siyosatining restriksion turidan inflyatsiyaga qarshi ko'rash maqsadlarida foydalanishga qaratilgan bo'lishi va u amaliy faollikning davriy o'zgarishlarini baravarlashtirishga qaratilishi mumkin. Markaziy bank o'tkazilayotgan pul-kredit siyosatini tartibga solishni amalga oshirishni turini, tijorat banklari faoliyatini tartibga solish vositalari turkumini tanlab olar ekan, har bir alohida holda xo'jalik kon'yukturasi holatini hisobga oladi. Ana shunday tanlab olish asosida ishlab chiqilgan pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishlari qonun chiqaruvchi organlar tomonidan tasdiqlanadi. Pul-kredit siyosatini har xil turlarini bank operatsiyalarini tartibga solishning ayrim vositalarini qo'llashning samaradorligi pul muomalasining nobarqarorligiga umumiy iqtisodiy yoki sig'siy omillar emas, balki sof monetar omillar qanchalik sabab bo'lganligi bilan belgilanadi.

Pul massasining kerakli miqdorini aniqlash uchun aholi va korxonalarning likvid pul mablag'lariga bo'lgan talabini taxlil qilib chiqish zarur bo'ladi. Ma'lumki, pulga bo'lgan talab kundalik haridlarni va bitimlarni amalga oshirish, shuningdek puldan qiymatni saqlash vositasi sifatida foydalanishi uchun o'z ixtig'rida yetarli miqdorda likvid pullar bo'lishi zaruriyatidan kelib chiqadi. Har ikkala maqsadga erishish uchun pulning real harid kuchi barqaror bo'lishiga erishish uchun muhim rol uynaydi.

Pulga bo'lgan talabning tarkibiy qismlarning hisoblab chiqish, ayirboshlashning miqdor tenglamasiga $MV+PT$ asoslanadi. Markaziy bank quyidagi asosiy ko'rsatkichlarga amal qiladi: bazaviy davrning narxlarida yalpi milliy maxsulotning taxmin qilinayotgan o'sishi; rejalashtirilayotgan davrda pul muomalasining taxmini tezligi; taxmin qilinag'tgan davrda narxlar o'sishining yo'l quyilishi mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi hisoblanadi.

To'lov balans, iqtisodiy o'sish va inflyatsiya nuqtai nazaridan belgilangan maqsadlar bilan pul-kredit siyosatining vositalari o'rtasidagi aloqani belgilash uchun quyidagi asosiy chora-tadbirlar ko'rilishi shart:

pulga bo'lgan talabning asosli iqtisodiy o'sish va inflyatsiyaning kutilayotgan darajalariga nisbatan, pul muomalasi tezligining taxminiy ko'rsatkichiga nisbatan belgilangan maqsadlarga mos bo'lgan istiqbolini ishlab chiqish;

pul-kredit siyosatining ichki kredit va pul massasi ko'rsatkichlari hajmlarining talab qilinag'gan darajalariga erishilishini ta'minlaydigan vositalarni tanlash.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish zarur bo'lgan bir sharoitda uning u yoki bu vositalarini qo'llashni samaradorligi va sernatijaligi muhim muammo bo'lib qolmoqda. Iqtisodiyotning barqarorlashtirish maqsadida fiskal siyosat va boshqa mexanizmlardan foydalanishi ham mumkin. Biroq bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi ko'pchilik iqtisodchilarning fikriga ko'ra pul-kredit siyosati - davlat barqarorlashtirish siyosatining ajralmas qismi va samarali vositasi hisoblanadi.

Pul-kredit siyosatidan foydalanishning muhim afzalligi mamlakat iqtisodiyotining holatiga tez va samarali ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. Agar tegishli fiskal siyosatni qullash davlat xoqimiyatining yuqori organlarida muhokama qilish bilan bog'liq; bo'lsa, pul-kredit siyosatini qullash masalasi Markaziy bankning o'zida operativ hal qilishi mumkin. Ushbu siyosatni qo'llash natijalari davlatning moliyaviy holatida juda tez aks etadi. Bu xol inflyatsiyaga qarshi ko'rash sohasida tezkor choralar ko'rish sharoitida juda muhimdir. Moliya-kredit siyosatini amalga oshirish samaradorligiga davlatning halqaro siyosati ham ta'sir ko'rsatadi. Foiz stavkalarini oshirish mamlakatga chet el moliyaviy investitsiyalarni ko'paytiradi, ichki milliy valyutaga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Milliy valyuta qiymatining oshishi uning chet el valyutalariga nisbatan kursi oshishiga sof eksportning pasayishiga va to'lov balansining yomonlashuviga olib keladi. Foiz stavkasining pasayishi horijdan moliyaviy kapitalining kirib kelishini kamaytiradi. Milliy valyutaning kursi pasayadi, sof eksport esa oshib boradi. Shu sababli mamlakatda foiz stavkasining o'zgarishi tufayli kelib chiqqan halqaro kapital oqimlari mamlakat ichida pul-kredit siyosatini kuchaytiradi, deb xulosa chiqarish mumkin.

2. Moliya siyosat mexanizmi.

Pul-kredit tadbirlarini amalga oshirish mexanizmini o'zatuvcchi yoki transmission pul-kredit mexanizmi deb atash mumkin. Bunday mexanizm pul-kredit siyosatining vositalarini sabab-oqibat aloqalari zanjiri yordamida oraliq maqsadlar va makroiqtisodiy maqsadlar bilan bog'laydi. Transmission mexanizmini rasman ketma-ket va mantiqan bog'langan konkret iqtisodiy ko'rsatkichlar qatori deb tasavvur qilish mumkin. Pulni tartibga solishning muayyan vositasi ta'sirida o'zlash zanjiri buylab to oxirgi bugingacha signallar biridishiga erishish mumkin. Bunday yo'naltirish jamiyatdagi iqtisodiy jarag'nlarning murakkab mexanizmini aks ettira olmaydi. Bunday modellash pul-kredit yordamida tartibga solish mexanizmini tushunishni yengillashtiradi.

Inflyatsiya yuqori bo'lgan sharoitda ancha qisqa muddatlarda hukumat va Markaziy bank kelajak davr uchun iqtisodiy va pul-kredit siyosatining pirovard maqsadlarini ta'riflab beradi. Bular ichida eng muhimlari, iqtisodiy o'sishning real sur'ati, inflyatsiyaning maqbul sur'ati va to'lov balansining qoniqarli holatidir. Markaziy bank iqtisodiyotni pul-kredit siyosati usul va dastklari orqali bilvosita tartibga solib turadi. Iqtisodchilarning fikricha, oraliq maqsadlarga erishish pirovard maqsadga erishishni ta'minlab beradi. Unga erishishni yengillashtirish uchun pirovard maqsadlarga olib boradigan oraliq maqsadlar belgilanadi.

Oraliq maqsadlarni tanlash vaqtida Markaziy bank uning asosiy indikatoriga nisbatan qo'yidagi muhim talablarga asoslanadi:

Oraliq maqsad oson o'lchanadigan bo'lishi kerak;

Uni Markaziy bank nazorat kila oladigan bo'lishi kerak;

Pirovard maqsad bilan yaqin alokada bo'lishi kerak.

Shunday qilib, Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirishdagi asosiy vazifasi - xo'jalik kon'yukturasi hozirgi holatiga va iqtisodiy taraqqig't istiqbollari qarab, pul massasi o'sishining maqsad yo'nalishlariga rioya qilishdan iboratdir.

Pul-kredit siyosatini shakllantirishda bir vaqtning o'zida ikkita bir-biriga qarama-qarshi vazifani hal qilishga to'g'ri keladi;

Bir tomondan, muomaladagi pul massasining o'zgarishini mumkin qadar moslashuvchan qilish, xo'jalik holatidagi har qanday o'zgarishlarga tezkor munosabat bildirish, o'sib borayotgan amaliy faollikni qullab-quvvatlash;

Ikkinchi tomondan - pul massasining ko'payishini ma'lum darajada cheklash, muomalaga ortiqcha to'lov vositalari massasining tushishiga yo'l quymaslik kerak. Iqtisodiyotning boshqa har qanday sohasida bo'lgani kabi pul muomalasining holatiga ko'pdan-ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Pul muomalasi nazariyasida pulning muvozanatlilik holatiga ta'sir ko'rsatadigan ikki guruh omillar ajratiladi. Birinchi guruh pulga bo'lgan bo'lgan talabni, ikkinchi guruh-pul taklif qilish ko'lamini belgilaydigan omillar. Pulga bo'lgan talab bilan pul taklif qilishning bir-biriga moslashishi jarayoni juda murakkabdir. Bunday moslashishning natijalari esa salbiy natijalari esa mamlakat halq xo'jaligida turli bo'ziliklar va nomutanosibliklarga olib keladi. Pul muomalasining muvozanatda bo'lmasligi tovar oborotining real sektoridagi o'zgarishlar, narxlar dinamikasi, pul muomalasining tezligi, tashqi iqtisodiy omillar va shu kabilar tufayli pulga bo'lgan talabning o'zgarishi natijasida shuningdek moliya sohasi pulining xaddan tashqari ko'p yoki kam taklif qilishi oqibatlarini ham kelib chiqish mumkin.

Agar oborotga to'lov vositalari tushishining asosiy manbai bo'lgan bank tizimi korxonalar va aholi uchun pul muassasini kengatirishning talab qilinadigan sur'atlarini ta'minlamasa, halq xo'jaligining pulga ehtiyojini qondirmasa, bu hol to'lovga qobiliyatli talabning qisqartirishga sabab bo'ladi va ishlab chiqarishning kamayishiga hamda ish bilan bandlikning qisqarishiga olib keladi. Bank sohasi muomalaga haqiqatda keragidan ortiqcha pullarning muntazam kelib turish manbai bo'lsa, bu xol inflyatsiya tayziqini kuchaytiradi va milliy valyuta harid qobiliyati tushib ketishga sabab bo'ladi.

Muomiladagi pul massasining kengayishini ikki bosqichidan iborat jarayon deb tasavvur qilishi mumkin:

pul massasining birlamchi hosil bo'lishi, u Markaziy bankning davlat organlari va bank tizimi oldidagi majburiyatlari ortishi natijasi yuz beradi.

pul muassasining depozit banklarda ikkilamchi o'sishi; bunda ushbu banklarda deponetda saqlanayotgan mablag'larni «multiplikatsiyalash» yo'li bilan erishiladi, natijada ushbu mablag'lardan berilgan kreditning bir qismi qarzdor tomonidan foydalanib bo'lingandan keyin yangi omonatlar tarzida depozit banklarga qaytadi va ular yana qarzga berilishi mumkin.

Pul bazasi bilan pul massasi o'rtasidagi multiplikatsiya aloqasi Markaziy bankning pul massasini taklif qilish jarayoniga kay tarzda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishi mumkinligi tushunishga sharoit yaratadi. Markaziy bank pul bazasini aniqlovchi asosiy tashkilotlardan biridir, shu bilan birga u ma'lum maqsadlarga muvofiq pul bazasining

miqdori yoki mul'tiplikatorning miqdoriga yohud birga olingan ikkala ko'rsatkichga ta'sir etishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotida Markaziy bank pul bazasining miqdorini to'liq, nazorat qila olmaydi va boshqara olmaydi. Tijorat banklarning (Markaziy bankdan kredit olish), davlatning (ijtimoiy siyosat, tovon to'lash, soliq siyosati) va aholining (pullarning kirib kelishi va chet elga chiqib ketishi) hatti-harakatlari pul bazasining o'zgarishi ustidan to'liq nazorat o'rnatishda ma'lum kiyinchiliklarni tug'diradi. Mul'tiplikator xususida ham shuni aytish zarurki, naqd pullar koeffitsientlari, ortiqcha zaxira me'g'rlar va boshqa tarkibiy qismlar, aholi hamda tijorat banklarning psixologiyasi bilan hatti-harakatlari ta'sirida o'zgarib turadi.

Pul mul'tiplikatorlarning miqdori banklarning (zaxira me'g'rlari orqali) va bankdan tashqari soha harakatiga (naqd pullar va jamg'armalar koeffitsientlari orqali) bog'liqdir.

Bank operatsiyalarini tartibga solish mexanizmi mamlakatda bank faoliyatini tashkil etish shakllariga, Markaziy bankning o'rni, roli va vazifalariga va boshqa omillarga bog'liq. Bu mexanizmi bilan operatsiyalarini tartibga solishning usul va vositalarini hamda pul massasi, bilan foiz stavkalari o'zgarishlari va makro hamda mikro darajasidagi bank likvidligi ustidan nazorat qilishning ochiq shakllarini o'z ichiga oladi.

Tartibga solish uchun banklar faoliyatiga ta'sir qilishning bevosita (ma'muriy), ham bilvosita (iqtisodiy) usullardan foydalanishi mumkin.

Ma'muriy usullarga Markaziy bankning tijorat banklar faoliyatining miqdori va sifat ko'rsatkichlariga nisbatan belgilaydigan bevosita cheklovlar (limitlar) yoki taqiqlari kiradi. Ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralari qo'llashda ko'pincha qo'ydagi vositalardan foydalaniladi:

turli toifadagi qarzlarni berishning va kredit rusurslarini jalb qilishning eng yuqori miqdori (yoki limit)larni joriy etish;

tijorat banklarning filiallar va bo'limlar ochishini cheklash;

vositachilik haqining, har xil xizmatlar ko'rsatganligi uchun tariflarning foiz stavkalarining miqdorlarini limitlash;

operatsiyalarning, ta'minotining ayrim turlarini va ba'zi xil operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat berilgan banklar ro'yxatini belgilash.

Pul-kreditni tartibga solishning iqtisodiy usullari jumlasiga asosan bilvosita ta'sir ko'rsatadigan tadbirlar kiradi. Iqtisodiy usullar ko'proq bozor iqtisodiyotiga xos bo'lib, bunda o'z-o'zini boshqarish jarag'nlarning rivojlanishi ikkilamchi darajaga mansub har bir kredit muassasasining mikro darajada mustaqil pul-kredit siyosatini amalga oshirishini taqozo etadi, bu siyosatining samaradorligi va natijalari ushbu kredit muassasasining bank tizimidagi ahamiyatini belgilab beradi va rakobatni rag'batlantiradi.

Bevosita tartibga solish vositalari hukumat tomonidan ko'zda tutilgan pul-kredit siyosatining maqsadlariga rejalash raqamlari bevosita ko'rsatib o'tilgan qoidalaridan foydalanishi asosida erishilishi uchun mo'ljallangandir. Ular yordamida bankdan tashqari sohada vujudga kelayotgan moliyaviy sharoitlar, ya'ni foiz stavkalari va kreditlar ustidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat amalga oshiriladi.

Bilvosita tartibga solish vositalari banklar va bankdan tashkari muassasalari harakatlariga faqat bozor kuchlari yordamida ta'sir ko'rsatish yo'li bilan amal qiladi. Ana shu maqsadda Markaziy bank o'zining vakolatlaridan muomaladagi pul massasini hajmini belgilash uchun foydalanadi va iqtisodiyotga pul bozoridagi foiz stavkalarining o'zgarishiga qarab ish to'tish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tash mamlakatlarining pul-kredit siyosati asosan bevosita tartibga solish vositalaridan foydalanishga asoslanadi: bunday sharoitlarda moliya sohasi hali yetarli darajada rivojlanmagan va raqobatlashuv muhitini yaratish uchun mos to'zilmalar yo'q.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lidagi o'zgarishlarni dastlabki bosqichlaridagi mavjud cheklovlar pul-kredit siyosatini amalga oshirishning tegishli vositalarini tanlashni belgilab berdi.

Iqtisodchilar, sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar pul-kredit siyosatini amalga oshirishda bevosita emas, balki bilvosita usullaridan foydalanishlari zarur degan fikri bor edi, lekin bu fikr bizning iqtisodiyotimizga nisbatan to'g'ri kelmadi, chunki mamlakat o'ziga xos taraqqig't xususiyatlariga egaki, bu xususiyatlar rivojlangan mamlakatlardan ham, odatda rivojlanag'tgan deb hisoblanuvchi mamlakatlardan ham farqlab turadi.

O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bunday tanglikning barcha makro iqtisodiy omillari aynan bir vaqtning o'ziga kechdi: ichki yalpi maxsulot juda ham tushib ketgan, ishsizlik va inflyatsiya mavjud bo'lib, bu xol iqtisodiyotning stagflyatsiya holatiga mos edi. Ana shular pul-kredit siyosatini amalga ishirishga tegishli cheklovlar quyilishiga sabab bo'ldi.

Sobiq Ittifoqdan meros qolgan samarasiz ishlab chiqarish tizimida tarkib topgan ijtimoiy - iqtisodiy va tashkiliy -texnikaviy muassasalarining mohiyati: ichki bozorlarning monopollashganligi, korxonalar ishlab chiqargan maxsulotning raqobatga bardosh bera olmasligi, boqimandaligi kayfiyati, xo'jalik vazirliklari, idoralar va tashkilotlarning to'rachiligi, axborot-statistika hisobotlarining yangi ehtiyojlariga nomuvofiqsizligi kabi holatlarni darxol o'zgartirib bo'lmas edi.

Ishlab chiqarish, moliya va psixologik muassasalarining ijtimoiy iqtisodiy hamda tashkiliy - texnikaviy holati ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirish masalalari bilan moliya sohasini imkoniyatlari o'rtasida chuqur nomutanosiblik kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Ob'yektiv zaruriyat dastlabki davrlarda bevosita usullar va vositalardan foydalanish zarurligini belgiladi. Bu usul va vositalar asosan ikki muhim: iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi bo'lishi va mamlakat moliyaviy tizimi tarkibiy to'zilishini takomillash ish jarag'niga to'sqinlik kilmaslik shartlarini ta'minlar berish kerak edi.

O'zbekiston uchun bozorga o'tish davrining boshlarida bevosita ta'sir ko'rsatishdan foydalanishning afzalliklari ulardagi mavjud kamchiliklarni bosib ketar edi.

Keyinchalik bozor o'zgarishlari yo'lidan ilgarilab borilgan sari bu vositalar yangilandi, keyinrok pul-kredit siyosatini islox qilish tartibga solishning bilvosita vositalari yordamida amalga oshirila boshladi, inflyatsiya kuchayib borgan sari bilvosita vositalariga o'tish tobora zarurrok bo'lib qoldi. Inflyatsiyaga qarshi ko'rash umumiqtisodiy islohatlarda quyilgan har bir qadam bilan (tarkibiy to'zilishinig qayta kurish, yokilgi mustaqiligiga erishish, import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqlarni kengaytirish, korxonalarning raqobatliligini oshirish) tobora uyg'un izchil bo'lib bordi ishlab chiqarish va ish bilan bandlik darajasida juda oz chiqim bilan amalga oshirildi. 1994 yili burilish davri buldi, bunda hukumat darajasida amalga oshirilayotgan islohatlarning orqaga qayt, masligini amalda mustahkamlaydigan bir qator jiddiy qonun hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida respublika Prezidentining 1994 yil 21 yanvardagi «Iqtisodiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish choralari to'g'risida»gi

farmoni, Respublika Vazirlar Maxkamasining «Bank tizimini shakllantirish va pul-kredit munosabatlarini barqarorlashtirish choralari to'g'risida»gi 18 mart 146-sonli qarori, «Iste'mol bozorini to'ldirish, pul muomalasini mustahkamlash va eksport potensialini kengaytirish choralari to'g'risida»gi 23 iyun 315-sonli, «Muomaladagi naqd pul massasini qisqartirish choralari to'g'risida»gi 27 avgust 436-sonli qarorlarini ta'qidlash zarurdir.

Bevosita boshqarish visitalari jumlasiga iqtisodiyotning ayrim sektorlariga beriladigan kreditning eng ko'p miqdori yoki qiymatini belgilash ham kiradi.

Kredit eng ko'p miqdorlarini belgilashning ko'pdan-ko'p turlar mavjud.

Birinchidan, iqtisodiyotning faqat ma'lum sohalari uchun kreditlarni chegaralab quyish mumkin, ya'ni tanlab amalga oshiriladigan kredit nazorati. Bu nazorat qarzlarining muayyan turlari uchun yuqori darajani belgilashga asoslangan ijobiy nazoratga va iqtisodiyotning bir qator sohalari qarzlarining quyi miqdorlarini belgilashni o'z ichiga oladigan salbiy nazoratga bo'linadi.

Ikkinchidan, bank sohasi beradigan kreditlar umumiy summasiga nisbatan joriy etiladigan kreditning umumiy eng yuqori miqdori mavjud. Bu miqdorlar ayrim banklar uchun bir xil bo'lmaydi va ko'pincha har bir bankning o'zilmagan kreditlari summasiga bog'liq. Limitlarni belgilash chogida mezon sifatida bank sarmoyasining miqdoridan foydalanish ham mumkin. Ba'zi banklar o'z limitlaridan foydalanib bo'lgan bir vaqtida botika banklarga bu cheklovlar ta'sir etmasligi va ish tariqa kreditning umumiy yuqori doirasida kreditni kengaytirish uchun erkin maydon yaratishi ham mumkin. Banklarga foydalanilayotgan kredit resurslari bilan mazkur limit doirasida kredit auksionlarda savdo qilish imkoniyati berilsa, joriy etilgan ko'rsatkichdan bunday orqada qilish qisqartilishi mumkin.

Uchinchidan, kredit ekspansiyasining inflyatsiya oqibatlari uni moliyalash usuliga bog'liq ekanligini hisobga oladigan kreditning yuqori miqdori ham mavjud: banklar o'z kreditlarini o'zoq muddatli qimmatli qog'ozlar chiqarish yoki uzoq muddatli jamg'arma omonatlarini jalb qilish hisobiga moliyalashlari mumkin. Bu xol kreditlarni joriy omonatlari hisobidan moliyalashga qaraganda inflyatsiyada kamroq aks etadi.

Bozor iqtisodiyotida Markaziy bank amalga oshirilag'tgan pul-kredit siyosati ro'g'bga chiqarishning asosiy vositalari jumlasiga quydagilar kiradi:

eng kam zaxira talablarini joriy etish;

tijorat banklarini qayta moliyalash miqdorlari va shartlarini belgilash;

ochiq bozordagi operatsiyalar. Ochiq bozordagi operatsiyalar Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini sotib olish yo'li bilan pul massasini tartibga solishga qaratilgan. Taklifning o'sishiga Markaziy bank aholidan va tijorat banklaridan davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olgan vaqtida muomalaga chiqarilgan pullar hisobidan erishiladi. Pul massasini qisqartirish zarur bo'lganida qimmatli qog'ozlarni sotish yo'li bilan pullar muomaladan chiqarib olinadi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar-A+Shda va rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan boshqa mamlakatlarda pul-kredit siyosatining tez-tez qo'llanib turiladigan vositasidir.

Bu vosita optimal darajada faoliyat ko'rsatadigan qimmatli qog'ozlar bozorida, aholining qimmatli qog'ozlarga ishonchi yuksak darajada bo'lgandagina samarali ish beradi. Markaziy bankning ochiq bozordagi operatsiyalari to'g'ri va teskari operatsiyalari bo'lishi mumkin.

To'g'ri operatsiya odatdagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotishdan iborat.

Teskari operatsiya - qimmatli qog'ozlarni oldindan belgilab quyilgan kurs bo'yicha teskari bitimlarni mukarrar sura'tda to'zgan holda olish - sotishdan iborat bo'ladi. Jahondagi yetakchi rivojlangan mamlakatlar, Markaziy banklari ochiq bozorda amalga oshirilgan teskari operatsiyalarning ulushi 82-99,6 % gachani tashkil etadi.

Markaziy bankning ochiq bozordagi sohasidagi siyosati davlat qimmatli qog'ozlarini, Markaziy bankning o'zi chiqargan qarz majburiyatlarini bozor bahosida sotish va sotib olish vositasida pul bozorini tartibga solib turishga qaratiladi.

Ochiq bozorda operatsiyalardan keng qulamda foydalanish qisqa muddatli pul bozorini rivojlantirishga tijorat banklarining likvidligini hamda iqtisodiyotga pul resurslarini aylanish tezligini oshirishga yordam beradi.

3 Bank nazorati va moliya muassasalari faoliyatini rivojlantirish yo'llari

Banklar o'z faoliyatlarini tartibga solishi tizimining qat'iy qoidalariga rioya qilishlari, tegishli davlat organlari belgilaydigan qoidalarini bajarishlari shart. Bu qoidalar bank o'preatsiyalari va taklif qilinag'tgan xizmatlar turkumiga, kreditlarning sifati va miqdoriga, o'z kapitalining yetarlicha, banklarning mijozlarga hizmat ko'rsatishini yaxshilash uchun foydalaniladigan o'sish va kengayish usullarga taalluqlidir.

Birorta ham bank davlatning ro'xsatini olmasdan turib, o'z faoliyatini boshlay olmaydi. U mablag'larni safarbar etish uchun har xil turdagi dipozitlardan va boshqa moliyaviy elementlardan foydalanishga beriladigan ruxsatnomani boshqaruv va nazoratning barcha eng muhim organlarida tasdiqlanishi shart. Bank kreditlarining va investitsiyalarning sifati, bank kapitalining yetarliligi turli nazoratchilar tomonidan puxta tekshiriladi. Agar bank kengayishni va yangi bino ko'rilishini, boshqa bank bilan qo'yilishni, bo'lim ochishni bank bo'lmagan turdagi korxonani sotib olishni yoki tashkil etishni xohlasa, eng avvalo u tegishli muassasalarning ruxsatini olishi kerak.

Banklarning bunday qattiq nazorat qilinishiga sabab, ularning kreditlar berish yoki hech to'sqinliksiz sarf qilinadigan depozitlar hisobiga o'z investitsiya faoliyatlarini amalga oshirish yo'li bilan pul ishlashga qodirligidir.

Bank tizimi xususiy shaxslar va korxonalarning jamg'armalarini to'plab, hamda ularni boshqa jismoniy va yuridik shaxslarga berib, juda muhim vositachilik rolini bajaradi, ular safarbar etilgan pul mablag'larini eng samarali tarzda va unumli foydalanishi uchun qayta taqsimlaydi. Markaziy bank pul taklif qilishning nazorati uchun javobgardir. Markaziy bank rahbarlarining asosiy vazifasi, jami iqtisodiyotning ehtiyojlariga muvofiq pul muomalasini tartibga solib turishdan iboratdir. Bu vazifa mavjud pul miqdorini ishlab chiqarishning o'sib borayotgan, barqaror narxlar darajasiga muvofiqlashtirishni taqazo etadi.

Tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishning bir qancha turlari mavjud eng asosiylari - davlat, idoraviy va mustaqil nazorat.

Tijorat banklar faoliyati ustidan davlat nazorati banklar to'g'risidagi qonun hujjatlarining amaldagi tizimi bilan belgilanadi. Hammasi kredit muassasalari va banklar, shu jumladan Markaziy bank ham qonunlar doirasida ish olib boradi.

Idoraviy nazorat Markaziy bank tomonidan tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishi o'z ichiga oladi. Idoraviy nazoratning vazifalari maqsad za chegaralari tegishli qonun va me'g'riy xo'jjatlar bilan belgilangan.

Mustaqil nazorat- bu idoralardan tashkari mustaqil tashkilotlar, ya'ni auditorlik firmalari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdir.

Tijorat banklari ishonchliligini oshirish hamda o'z ishlarining sifatli bo'lishini ta'minlash uchun ichki bank nazoratini yoki ichki auditni tashkil etadi va amalga oshiradi.

Tashqi audit amalga oshirilgan vaqtda ichki nazorat tizimining mavjudligi va uning naqadar samarali ish olib borayotgani albatta tekshiriladi.

Bank nazoratini tashkil etish mamlakatning qonunchilik bazasiga va halqlararo bank tashkilotlarning tavsiyalari asoslanadi. Banklarni nazorat qilishi tizimi quydagilarni qamraydi:

- nazorat qilishi kerak bo'lgan bank muassasalari turlarini aniqlash;
- bank operatsiyalarini amalga oshirishga litsenziyalar berish;
- buxgalterlik hisobi, bank va statistika hisobotining andozalari (standartlari);
- bank faoliyatini amalga oshirishga berilgan litsenziyalarni bekor qilish yoki bank operatsiyalarini chegaralash tartibi;
- auditorlik tekshiruvchilarning majburligi;
- bankni boshqarish bo'yicha muvakkat ma'muriyatni tayinlash tartibi;
- bankni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilish.

Bank nazoratining tashkiliy to'zilmalari juda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Buyuk Britaniya, Italiya, Rossiya kabi mamlakatlarda nazorat milliy markaziy banklar amalga oshiradi. Kanada va Shveytsariya nazorat organlari ulardan ajratilgan. Germaniya, A+Sh va Yaponiyada aralash tizim mavjud bo'lib, bunda markaziy banklar nazorat vazifalarini davlat organlari bilan bo'lishib olgan.

Nazorat organlari tijorat banklari faoliyati ustidan nazoratni joylarda tekshiruv ishlarini tashkil etish yo'li bilan olib boradi. O'zbekiston Respublikasida nazorat organi vazifalarini kredit muassasalarini tekshirish yuzasidan tasdiqlangan qoida asosida Respublika Markaziy banklarning tijorat banklari faoliyatini litsenziyalash va boshqarish departamenti bajarmokda, tekshirish ikki xil bo'limi: Kompleks va nokompleks (tanlab) o'tkazilishi mumkin.

Kompleks tekshiruv ko'pi bilan 30 kun muddatda amalga oshiriladi va bankning barcha asosiy operatsiyalarini, operatsiya kunning o'z vaqtida tugallanishini hamda kundalik balansining to'zilishini nazarda tutdi.

Hamma tijorat banklari ikki yilda kamida bir marta kompleks tekshiruvdan o'tkazilishi shart.

Nokompleks tekshiruv 15 kungacha muddat bilan cheklangan va u bank faoliyatini ayrim sohalarini qamrab oladi.

Tekshiruv natijalari bo'yicha dalolatnoma 3 nusxada cho'zilib, ularning har birini tekshiruv raxbari, tekshirilag'tgan bankning raxbari va bosh buxgalteri hamda boshqa mansabdor shaxslar imzolaydi va bir nusxasini tekshirilayotgan bank raxbariga topshiriladi.

Bankning kredit majmuasi qiska muddatli, uzoq muddatli va muddati o'tgan kreditlar bo'yicha balans hisobvaraklaridagi mablag'larning qoldiqlaridan tashkil topadi.

Kreditni qaytarib berishni ta'minlash ma'lum bir bankda kredit jarayonini tashkil etishga, qarz berish va uni o'zi tartibiga rioya qilishga, ayniqsa muddati o'zaytirilgan hamda muddatida qaytarilmagan qarzlarni hisobda to'g'ri aks etirishni bankning taxlil ishiga hamda qarzlarni tasniflashning tutriligiga, qarz bo'yicha ko'rilag'tgan zararni

koplashda foydalaniladigan zaxiralar miqdoriga, banklararo kreditlar bo'yicha va markazlashtirilgan resurslar hisobidan beriladigan kreditlar bo'yicha operatsiyalarning qonuniyligiga bog'liq bo'ladi.

Bank mijozlari bo'lmaganlarga berilgan qarzlarning sifatini, uning hajmi va vazifasini hisobga olgan holda taxlil qilish, garovining sifatini (xajmi, likvidligi, saqlash joyi, rasmiylashtirishning sifati) yoki kafolat turini yoki polis bergan sug'urta kompaniyasini to'lovga lag'katligini; foiz stavkasini; qarz oluvchining moliyaviy axvolini; qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni; bankning qarz oluvchi bilan munosabatlarini; qarz berish va uni so'rash shartlarini; xujjatlarning rasmiylashtirilishini va kredit ma'lumotlarini; kreditning muddatini o'zaytirish yoki uni muddatida qaytarilmaslik hollarini taxlil qilish muhimdir.

Bank nazorati organlari faoliyatini eng muhim yo'nalishi bank oladigan foyda hisobidan koplanishi kerak bo'lgan harajatlarning bank xizmatlari tannarxiga kiritilgan harajatlarga o'tkazish hollarining oldini olishdan iboratdir.

Tijorat bankini soliqqa tortish xolatini tekshirishning asosiy vazifalari quydagilar:

- banklar olgan daromadlarining to'g'riligini tasdiqlash;
- bank xizmatlarini tannarxiga kiritiladigan hamda soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlanadigan harajatlar to'g'riligini tasdiqlash;
- soliqqa tortilgunga qadar foyda summasining; moliyaviy natijalariga kiritiladigan daromadlar va harajatlar to'g'ri xisoblab chikarilganligini tasdiklash;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lab bo'linganidan keyin bank tomonidan foyda hisobidan qilingan harajatlarning to'g'riligini tasdiklash;
- soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash muddatlarining to'g'riligini tekshirishdan iborat,

O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari markazlashtirilgan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lida duch kelag'tgan eng murkkab muammolardan bu inflyatsiya muammosidir. Biroq bu davlatlar bozor iqtisodiyoti berishi mumkin bo'lgan ne'matlardan foydalanishni xoxlar ekanlar, bu mushkulotlarni yengib o'tishlari shart.

Inflyatsiya pul muomalasiga nisbatan qo'llanganida muomala sohasining halq xo'jaligidagi real ehtiyojlaridan ortiq darajada pul belgilari bilan to'lib toshib ketishini anglatadi.

Inflyatsiya bu iqtisodiyot tomonidan ishlab chikariladigan va sotiladigan tovarlar hamda xizmatlar narxlarining o'rtacha darajasini oshishi demakdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki sababdan biriga ko'ra yuz beradi: g' ishlab chiqaruvchilar odamlarni tovarlar va xizmatlar bilan taminlashni ko'paytirib ulgurmay, odamlar o'z harajatlarini tezrok; ko'paytiradilar; yoki iste'molchilarni yoki ishlab chiqaruvchilarni tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlash qisqaradi va bu xol narx navoning o'sishiga olib keladi. Ba'zan inflyatsiyani qisqarib borayotgan tovarlar miqdori ketidan yetib olishga intilayotgan pul mablag'larining ko'payishi deb ham ta'riflaydilar.

Tadbirkorlar va sarmoyadorlar yangi iqtisodiy erkinlikka yangi bizneschilarni kashf etish hamda tovarlar va xizmatlar taklif qilishda rakobatlashuv bilan javob beradi, shu tarifa ish joylarini tashkil etadilar, taklifni ko'paytiradilar hamda narxlarning yanada normallashtirishini keltirib chikaradilar.

Bunday o'tishning eng muhim joyi shundaki, xukumat narx-navoni belgilashdagi o'z rolidan voz kechadi va bozor kuchlariga tovarlar va xizmatlarni taklif qilish imkonini beradi. Bunday erkin bozor mustaxkamlanganidan keyin inflyatsiya davom etishi

mumkin, lekin bu iqtisodiy o'tishning ancha og'ir bo'lgan ilk davridagiga qaraganda boshqariladigan va kamroq xavf tug'diradigan muammo bo'lib qoladi.

Inflyatsiyaning mohiyatini yanada to'laroq tushunish uchun inflyatsion soliq; degan xodisa ustida alohida to'xtilib o'tish kerak. Uning mohiyati shundan iboratki, byudjetdan nazarda tutilmagan subsidiyalar biron - bir tarmoqqa berilganda uning xodimlari boshqa tarmoqlarining xodimlariga nisbatan qo'shimcha pul mablag'lari tarzda qo'shimcha afzallikka ega bo'ladilar.

Inflyatsiyaning ijtimoiy oqibatlarini ham bor: u nominal, shuningdek real ish xaqqining o'sishi suratlari tovarlar va xizmatlarning keskin oshib borag'tgan narxlaridan orqada qolishgan sabab bo'ladi. Inflyatsiyadan qat'iy belgilangan daromad oluvchi odamlarning hamma toifalari zarar ko'radi, ularning daromadlari yo kamayib boradi, yoki inflyatsiyaning sur'atlariga qaraganda kamroq; sur'atlar bilan oshadi.

Nominal ko'rsatkichlar oshib ketishi yoki inflyatsiyaning yana bir misoli nominal foiz stavkasining oshishidan va valyutaning ayirboshlash kursi pasayishidan iboratdir. Davlat iqtisodiyotidagi inflyatsiya jarag'nlari natijasida milliy pul birligining harid qobiliyati pasayadi, inflyatsiya pul zaxiralarining real qiymatini yeb bitiradi yoki mamlakatning pul birligini qadrsizlantiradi. Shunda aholi va korxonalar mamlakat valyutasidagi pul qoldiqlarini o'zlarining nazarida harid qobiliyati mustaxkam va barqaror bo'lgan boshqa «kuchliroq» valyutaga almashtirishga harakat qiladilar.

Inflyatsiyaning tovarlar va xizmatlar narxlari o'sib borag'tganini ochiq ko'zatish mumkin bo'lgan turi bu oshkora (ochiq) inflyatsiya deb ataladi. Birok inflyatsiya yashirin. (yoki berkitilgan) shaklda tovarlar va xizmatlarning narxlari ochiqdan - ochiq o'smagan holda ham yuz berishi mumkin.

Pul muassasini ko'paytirilishi inflyatsiyaning asosiy manbaidir va u shunga olib keladiki, korxonalar ham, xususiy shaxslar ham u yoki bu tovarga ko'prok miqdorda pul taklif qilib, shu tariqa narxlarning o'sishini rag'batlantirish imkoniga ega bo'ladi.

Insolyatsiya mexanizmini hamda xukumat uni qanday jilovlash mumkinligi yoki nooqilona siyosat tufayli uni chuqurlashtirib yuborishi mumkinligini tushunish uchun pulning iqtisodiy konsepsiyasi asoslarini bilib olish zarur.

